

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

SUG‘URTA FAKULTETI

“SUG‘URTA ISHI” KAFEDRASI

XO‘JAYOROV XOSHIM AZIMOVICH

**“Umumiy sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta zaxiralarini shakllanish
mehanizmi va muammolari”**

5341300 – “Sug‘urta ishi” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish
uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Sug‘urta ishi” kafedra mudiri

_____ i.f.n., dotsent I.K.Ochilov
“ _____ ” _____ 2014

Ilmiy rahbar _____ k.o‘q. I.G‘.Kenjaev

“ _____ ” _____ 2014

TOSHKENT-2014

KIRISH.....

**I BOB. SUG‘URTA TARMOG‘INING TARKIBIY QISMI
HAMDA SUG‘URTA FAOLIYATINI AMALGA
OSHIRISHDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI**

- 1.1 Sug‘urta tarmog‘larini tasdiqlanishi va uning tarkibiy qismlari
.....
- 1.2 Sug‘urta tarmog‘larining guruhlanishi hamda sug‘urta
faoliyatini amalga oshirishda tutgan o‘rni va ahamiyati.....

**II BOB. UMUMIY SUG‘URTA TARMOG‘IDA SUG‘URTA
TA‘RIFLARINI ISHLAB CHIQISH USLUBI VA
SUG‘URTA ZAHIRALARINI SHAKLLANTIRILISHI..**

- 2.1 Umumiy sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta ta‘riflarini ishlab chiqish
uslubini.....
- 2.2 Umumiy sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta zahiralarini
shakllantirilishi.

**III BOB. UMUMIY SUG‘URTA TARMOG‘IDA SUG‘URTA
ZAHIRALARINI SHAKLLANISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

- 3.1 Umumiy sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta zahiralarini shakllanish
mexanizmini takomillashtirish yo‘llari

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....

Kirish

Bitiruv malakaviy ish mavzuning dolzarbligi. So‘nggi yillarda respublikamizda sug‘urta xizmatlari bozorini taraqqiy ettirish, tarmoqda bozor mexanizmlarini keng ko‘lamda joriy etish yuzasidan e‘tirof etishga arzigulik ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori sug‘urta kompaniyalarining kapitallashuv darajasini oshirish, ularning respublika hududlarida agentlik shaxobchalarini kengaytirish va investitsion jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishda katta ahamiyat kasb etadi.

SHu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasining 2008 yil 21 aprelda “Transport vositalari egalarining fuqorolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”, 2009 yil 17 aprelda “Ish beruvchining fuqorolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi qonunlarning qabul qilinishi va amaliyotga joriy etilishi tufayli jamiyatda sug‘urtaning nufuzi oshdi. Eng muhimi, aholining sug‘urta tizimiga bo‘lgan ishonchi yanada ortdi.

SHuningdek sug‘urta tashkilotlarining ish yuritish uslublarini qayta ko‘rib chiqishni hamda sug‘urta xizmatlariga belgilanadigan narx-navoni, ya‘ni “sug‘urta tili” bilan aytganda sug‘urta tariflarini muntazam takomillashtirib borishdan iborat. raqobat sharoitida faoliyat ko‘rsatish sug‘urta tashkilotlarini xohlaydimi yo‘qmi tarif siyosatini muntazam o‘zgartirishni talab etadi. Aksariyat holatlarda sug‘urta tashkilotlari mijozlarni jalb etish uchun tariflarni asossiz ravishda pasaytiradilar. SHubhasiz, bu sug‘urtalovchilarning moliyaviy barqarorligiga jiddiy xavf soladi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning ta‘biri bilan aytganda, so‘nggi uch yilda mamlakatimizda mahalliyashtirish mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qariyb ikki barobar oshdi. Faqat o‘tgan yilning o‘zida 455 ta korxonada mahalliyashtirish dasturi asosida 1 ming 140 ta loyiha amalga oshirildi. Buning

natijasida ishlab chiqarish hajmi 1,2 barobarga ko‘paydi va import o‘rnini bosish bo‘yicha yakuniy samara 5 milliard 300 million AQSH dollarini tashkil etdi¹.

Oxirgi yillarda sug‘urta sohasida ham tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. YA’ni O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urta faoliyatini amalga oshirish va ularni moliyaviy barqarorligi mustahkamlashga doir qonunchilik bazasi takomillashtirildi hamda sug‘urtalovchilar tomonidan ko‘rsatiladigan sug‘urta xizmatlar ko‘lami yanada kengaytirildi.

SHuni alohida ta’kidlash joyizki, sug‘urta xizmatlarining yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sotib olinishi, ko‘p jihatdan sug‘urta tashkilotlarining tarif siyosatiga bog‘liq. Qaysidir ma’noda, sug‘urta tizimini rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri sifatida tariflarni tilga olish mumkin. Zero, sug‘urtalovchilar tomonidan tariflarni yuqori darajada belgilanishi, pirovardida, mijozlar sonining keskin kamayishiga sabab bo‘ladi. SHuni e’tiborga olgan holda sug‘urtalovchilarning tarif siyosatini ilmiy-nazariy jihatlarini o‘rganish, bu borada mavjud bo‘lgan muammolarni aniqlash dolzarb masalalardan biriga aylanib qolmoqda.

Bitiruv malakaviy ishning ob’ekti va predmeti. Umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat yurituvchi sug‘urta kompaniyalar faoliyati va sug‘urta tariflarini ishlab chiqishning uslubiy asoslari hamda sug‘urta zahiralarini shakllantirilishi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Umumiy sug‘urta tarmog‘ida faoliyat yurituvchi sug‘urta kompaniyalarida sug‘urta zahiralarini shakllanishida mavjud muammolarni o‘rganishi va ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati. Prezident I.Karimovning iqtisodiyot sohasidagi asarlari, shu jumladan sug‘urta sohasi bo‘yicha qabul qilingan Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasidagi

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг мамлакатимизнинг 2013 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2014 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. - Халқ сўзи» газетаси, 2014 йил 18 январь.

qarorlari hamda qonunchilik hujjatlari shu bilan bir qatorda mamlakatimiz olimlarining sug'urta yo'nalishi bo'yicha e'lon qilgan ilmiy maqolalari va monografiyalari dastur amal vazifasini va nazariy asoslarini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi. Kirish, 3 ta bob, asosiy mazmunini yorituvchi 5 ta savol, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kabi qismlardan iborat.

Ishning kirish qismida mavzuni dolzarb jihatlarini asoslovchi fikrlar o'z aksini topgan. Malakaviy ishni birinchi bobida, sug'urta tarmog'larini tasdiqlanishi va uning tarkibiy qismlari hamda sug'urta tarmog'larining guruhlanishi hamda sug'urta faoliyatini amalga oshirishda tutgan o'rni va ahamiyatiga doir fikrlar o'z ifodasini topgan. Ishning ikkinchi bobida, umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta ta'riflarini ishlab chiqish uslubi hamda umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta zahiralari shakllantirilishi oid amaliy materiallar tahlil qilingan. SHuningdek ishning uchinchi bobida umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta zahiralari shakllanish mexanizmini takomillashtirish yo'llari bo'yicha fikrlar bildirilgan. Ishning xulosa qismida bitiruv malakaviy ish mavzusidan kelib chiqib mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ishning umumiy hajmi 55 betdan iborat.

I.BOB. Sug'urta tarmog'ining tarkibiy qismi hamda sug'urta faoliyatini amalga oshirishda tutgan o'rni va ahamiyati

1.1 Sug'urta tarmog'larini tasdiqlanishi va uning tarkibiy qismlari

O'zbekistonning mustaqil rivojlanishi davrida sug'urtalashning huquqiy bazasiga va sug'urta sohasida bozor infratuzilmasini rivojlantirishga poydevor qo'yildi, misol uchun sug'urtalashda tomonlarning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi va respublikada sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat

qilishning tamoyillarini belgilovchi xalqaro andozalarga mos keluvchi hamda talablarga javob beruvchi O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni 2002 yil 5 aprelda qabul qilindi. Aytish kerakki, yangi qonun yurtimizda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma‘naviy sohalarda o‘tkazilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mamlakatimizda olib borilayotgan erkinlashtirishni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Bu qonunning qabul qilinishi sug‘urta munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarning huquq va manfaatlarini himoyalashga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi.

Sug‘urta munosabatlarining turlichaligini tartibga solish va o‘zaro bog‘liq yagona tizimini shakllantirish zarurdir. Sug‘urtani sohalarga bo‘lish asosida uning ob‘ektlari bo‘yicha farqlanishi yotadi. Bu omilga mos ravishda barcha sug‘urta munosabatlari yig‘indisini to‘rtta tarmoqqa bo‘lish mumkin: mulkiy sug‘urta, shaxsiy sug‘urta, javobgarlik sug‘urtasi, tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug‘urtasi.

Mulkiy sug‘urta ob‘ekti bo‘lib moddiy qiymatliklar hisoblanadi, shaxsiy sug‘urtada-fuqarolarning hayoti, sog‘ligi, mehnat qobiliyati, javobgarlik sug‘urtasida-sug‘urtalanuvchilarning uchinchi shaxs oldidagi javobgarliklari, tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug‘urtasida esa ob‘ekt bo‘lib tadbirkorlik ishlari bo‘yicha turli tavakkalchiliklar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 413-sonli Qarorining 1-ilovasi - Sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risidagi Nizom haqida bo‘lib, uning 1-ilovasida sug‘urta faoliyati klassifikatorining tarkibi hamda tarmog‘i kelirilgan.

Unda hayotni sug‘urta qilish tarmog‘i 4 ta klassdan, umumiy sug‘urta tarmog‘i 17 ta klassdan iborat ekanligi ko‘rsatilgan. Quyida umumiy sug‘urta tarmog‘i klasslarini sanab o‘tamiz:

1-klass. Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish. Quyidagi hollarda:

a) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida sogʻliqning qattiq shikastlanishi, yoxud;

b) baxtsiz hodisa yoki muayyan turdagi baxtsiz hodisa natijasida vafot etgan taqdirda, yoxud;

v) kasallik yoki muayyan turdagi kasallik natijasida mehnat qobiliyatini yoʻqotish, shu jumladan ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasb kasalliklari, biroq 2-klass va IV klass boʻyicha sugʻurta shartnomalarini istisno qilgan holda, sugʻurta qilingan shaxsga sugʻurta taʼminotining belgilab qoʻyilgan pul summasi yoki pul kompensatsiyasi toʻlanishini taʼminlaydi.

2-klass. Kasallikdan ehtiyot shart sugʻurta qilish. Sugʻurta taʼminotining belgilab qoʻyilgan pul summasi toʻlanishini yoki kasallik yoki sogʻliqning izdan chiqishi munosabati bilan sugʻurta qildiruvchining pul kompensatsiyasi (yoki uning ham, buning ham kombinatsiyasi)ni taʼminlovchi sugʻurta turlarini ifodalaydi, biroq hayotni sugʻurta qilish tarmoqlarining IV klassi boʻyicha shartnomalarni istisno qilgan holda.

3-klass. Er usti transport vositalarini sugʻurta qilish. Transport vositalari, oʻzi yurar mashina va mexanizmlar, harakatlanadigan temir yoʻl tarkibi bundan mustasno, yoʻqotilganda yoki shikastlanganda sugʻurta qoplamasi toʻlanishini taʼminlovchi sugʻurta turlarini anglatadi.

4-klass. Harakatlanadigan temir yoʻl tarkibini sugʻurta qilish. Harakatlanadigan temir yoʻl tarkibi yoʻqotilganda yoki shikastlanganda sugʻurta qoplamasi toʻlanishini taʼminlovchi sugʻurtaning turlarini anglatadi.

5-klass. Aviatsiya sugʻurtasi. Havo kemasi, havo kemasining mashina asbob-uskunalari, jihozlari, inventari, ehtiyot qismlari yoʻqotilganda yoki shikastlanganda sugʻurta qoplamasi toʻlanishini taʼminlovchi sugʻurtaning turlarini anglatadi.

6-klass. Dengiz sugʻurtasi. Dengiz va ichki daryo kemalari, kemalarning mashina asbob-uskunalari, asbob-uskunalari, inventari, ehtiyot qismlari yoʻqotilganda yoki shikastlanganda sugʻurta qoplamasi toʻlanishini taʼminlovchi sugʻurtaning turlarini anglatadi.

7-klass. Yoʻldagi mol-mulkni sugʻurta qilish. Transportning har xil turlari bilan tashishda yuklar, bagaj va boshqa mol-mulk yoʻqotilganda yoki shikastlanganda sugʻurta qoplamasi toʻlanishini taʼminlovchi sugʻurtaning turlarini anglatadi.

8-klass. Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sugʻurta qilish. YOngʻin, portlash, boʻron, dovul, jala, koʻchki, tuproqning choʻkishi, emirilish, er osti suvlari, sel, yashin urishi, zilzila, yadro energiyasi taʼsiri natijasida mol-mulk (3 va 7- klasslarda koʻrsatilganlar bundan mustasno) yoʻqotilganda yoki shikastlanganda sugʻurta qoplamasi toʻlanishini taʼminlovchi sugʻurtaning turlarini anglatadi.

9-klass. Mol-mulkni zarardan sugʻurta qilish. 8-klassda koʻrsatilmagan doʻl, qalin qor yogʻishi yoki qattiq sovuq tushishi, buzib kirib oʻgʻirlik qilish va boshqa voqealar natijasida mol-mulk (3 va 7-klasslarda koʻrsatilgandan boshqa) yoʻqotilganda yoki shikastlanganda sugʻurta qoplamasi toʻlanishini taʼminlovchi sugʻurtaning turlarini anglatadi.

10-klass. Avtofuqarolik javobgarligini sugʻurta qilish. Avtofuqarolik javobgarligini sugʻurta qilish.

11-klass. Aviatsiya sugʻurtasi doirasidagi javobgarlikni sugʻurta qilish. Havo kemasidan foydalanish oqibatida, aviatashuvchilarning javobgarligi ham shu jumlagi kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sugʻurta qoplamasi toʻlanishini taʼminlovchi sugʻurta turlarini anglatadi.

12-klass. Dengiz sugʻurtasi doirasida javobgarlikni sugʻurta qilish. Dengiz va ichki kemalardan foydalanish oqibatida, dengiz tashuvchisining javobgarligi ham shu jumlagi kiradi, uchinchi shaxslarga (jismoniy va yuridik shaxslarga) zarar etkazilgan taqdirda sugʻurta qoplamasi toʻlanishini taʼminlovchi sugʻurta turlarini anglatadi.

13-klass. Umumiy fuqarolik javobgarligini sugʻurta qilish. 10, 11 va 12-klasslarda koʻrsatilmagan tavakkalchiliklar oqibatida uchinchi shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar) oldida fuqarolik javobgarligi paydo boʻlgan

taqdirda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlarini anglatadi.

14-klass. Kreditlarni sug'urta qilish. Sug'urta qildiruvchining debitori nochorligi (bankrotlik) yoki debitorning sug'urta qildiruvchi oldidagi qarzlarni qaytarish majburiyati bajarilmasligi (nochorlikdan tashqari) natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlarini anglatadi.

15-klass. Kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish. Sug'urta qildiruvchining o'ziga berilgan kafolatni bajarishi majburiyati natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlarini anglatadi.

16-klass. Boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish. Quyidagi hollarda:

a) sug'urta qildiruvchining biznesi (xo'jalik faoliyati) uzilib qolishi yoki sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilayotgan biznes (xo'jalik faoliyati) ko'lami kamayishi natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda;

b) oldindan nazarda tutilmagan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda (17-klassda ko'rsatilgandan tashqari);

v) shartnomalar tuzilishi va bajarilishi bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish natijasida mazkur darajaning a) va b) bandlarida ko'rsatilgandan boshqa nobudgarchiliklarga uchraganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlarini anglatadi.

17-klass. Huquqiy himoya qilish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish. Sud muhokamasi bilan bog'liq ko'rilgan xarajatlar natijasida sug'urta qildiruvchi zarar ko'rganda sug'urta qoplamasi to'lanishini ta'minlovchi sug'urta turlarini anglatadi.

Sug'urta xizmatlarini ko'rsatish ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi:

- ixtiyoriy;
- majburiy.

Ixtiyoriy shaxsiy sug'urta turlariga quyidagilar kiradi:

- hayot sugʻurtasi;
- fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash;
- fuqarolarning sogʻligʻini va kasalliklardan sugʻurtalash;
- fuqaroni maʼlum yoshgacha etishish sugʻurtasi;
- vafot etish holatidan uzoq muddatli sugʻurtalash;
- tibbiy sugʻurta;
- maktab oʻquvchilarini baxtsiz hodisalardan sugʻurtalash.

Majburiy tarzda amalga oshiriladigan shaxsiy sugʻurta turlariga quyidagilar kiradi:

- yoʻlovchilarni baxtsiz hodisalardan majburiy sugʻurtalash;
- soliq organlari xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sugʻurtasi;
- Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat bojxona qoʻmitasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarini baxtsiz hodisalardan majburiy davlat sugʻurtasi.
- chet elga ketuvchilarni kasalliklardan sugʻurtalash.

Umuman olganda, sugʻurta turlarining majburiy yoki ixtiyoriy shaklda amalga oshirilishidan qatʼiy nazar, u boʻyicha litsenziya olgan sugʻurta tashkilotlarigina ushbu sugʻurta xizmatlarini koʻrsatishga haqli hisoblanadi.

1.2 Sugʻurta tarmogʻlarining guruhlanishi hamda sugʻurta faoliyatini amalga oshirishda tutgan oʻrni va ahamiyati

Sugʻurta koʻp tarmoqli faoliyat boʻlib, uni tashkil etishda yuzlab sugʻurta tashkilotlari ishtirok etadilar va ular minglab sugʻurtalanuvchi huquqiy va jismoniy tashkilotlarga xizmat koʻrsatadilar, faqat davlat hissadorlik sugʻurtasi yoʻli bilan sugʻurtaning 35 xili mavjud, ularning har birini obʼekti, subʼekti, tariflari bor. Sugʻurta ishini boshqarish, uning oʻxshash xillarini guruhlantirish, tarmoqlarga, boʻlimlarga ajratishni talab qiladi. Bu asosda sugʻurta ishini boshqarish va tashkil qilish asoslashadi.

Guruhlash lotincha “klassifikatsiya” soʻzidan olingan boʻlib, mavjud umumiy yaxlit tushunchani ayrim xillarga, boʻlimlarga, xillarga ajratish demakdir. Agar biz sugʻurta xillarini maʼlum tartib-qoida asosida birini ikkinchisidan ajratsak, boshqarish murakkablashadi, unda chalkashliklar sodir boʻladi.

Sugʻurtani guruhlash (klassifikatsiyasi) sugʻurtaning koʻp sonli xillarini hududlar, tarmoqlar, tarmoq boʻlimlariga, ularning ayrim xususiyatlarini eʼtiborga olib ajratishdir. Sugʻurta tashkilotlarining oʻz zimmalariga olingan javobgarliklari bir necha milliardni tashkil qiladi. Buning uchun har bir sugʻurtalanuvchi yirik korxonalar, hissadorlik jamiyatlari, tadbirkorlar bilan shartnoma tuzish, falokat yuz berganda ularga oʻz vaqtida yordamga kelish lozim. Buning uchun sugʻurta ishi, uning xillari, qoidalarini guruhlantirish qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligi bizga ravshanlashadi.

Sugʻurta faoliyati sugʻurtaning har bir xilining xususiyatlarini koʻzda tutib, quyidagi yoʻnalishlarga guruhlantiradi.

* Hududlar boʻyicha: (mamlakatni ichki doirasi va tashqi sugʻurta munosabatlarini eʼtiborga olib)

* Davlat va xususiy sugʻurta tashkilotlari

* Tarmoqlar boʻyicha

* Xavf-xatar xillari boʻyicha

* Majburiy va ixtiyoriy sugʻurta

Hududlar boʻyicha sugʻurtalashda mamlakatning ichki doirasida va tashqi iqtisodiy munosabatlarda, shu hisobda xorijiy mamlakatlar bilan sugʻurta sohasida hamkorlik qilish ham koʻzda tutiladi, bunda faqat eksport-import muammolarigina emas, balki investitsiyalar, diplomatiya xodimlarini ham sugʻurtalash koʻzda tutiladi. Bunday sugʻurtaning davlat va xususiy tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

SHu munosabat bilan dastlab sugʻurta tashkilotlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

* faqat xorijiy mamlakatlar investorlari va tashqi iqtisodiy munosabatlarga xizmat qiluvchi sug'urta tashkilotlari

* qo'shma sug'urta tashkilotlari, kompaniyalar,

* faqat mamlakat doirasida huquqiy va jismoniy shaxslarga xizmat qiluvchi tashkilotlar

* davlat hissadorlik sug'urta tashkilotlari.

Tarmoqlar bo'yicha guruhlashtirish asosan sug'urta ob'ektlari asosida amalga oshiriladi. Unda quyidagi yo'nalishlar mavjud:

* Mulk sug'urtasi

* SHaxsiy sug'urta

* Javobgarlik sug'urtasi

* Tadbirkorlik xavf-xatar sug'urtasi

Mulk sug'urtasi o'z navbatida tarmoq bo'limlariga bo'linadi. Masalan, qishloq xo'jaligi bo'yicha jamoa xo'jaliklari, matlubot korporatsiyasi, bundan tashqari sanoat korxonolari, ijaraga berilgan korxonalar ham tarmoq bo'limchalarini tashkil qilishlari mumkin.

SHaxsiy sug'urtada asosan ikki tarmoq, hayot sug'urtasi va baxtsiz hodisalardan qilinadigan sug'urta bo'limchalari mavjud.

Sug'urta munosabatlari sug'urta xillari bo'yicha mujassamlashtiriladi. Hayot sug'urtasi bo'yicha hayotning aralash sug'urtasi, bolalar sug'urtasi va shu kabi sug'urta xillari mavjud.

Baxtsizlik hodisalari bo'yicha tarmoq bo'limlariga yo'lovchilarni sug'urtalash, korxonalar ishchi va xizmatchilarini sug'urtalash hisoblanadi, shuningdek maktab o'quvchilari va boshqalar kiradi.

Mulk sug'urtasining ayrim tarmoq turlariga imoratlarni sug'urtalash, chorva mollari, uy-joy, ro'zg'or mulklari, transport vositalarini sug'urtalash, shuningdek qishloq ho'jaligi hosilini sug'urtalash, axborot xatarlarini sug'urtalash va boshqalar kiradi.

Sug'urtaning uchinchi tarmog'i javobgarlik sug'urtasidir. Bunda transport vositalaridan foydalanishda uchinchi shaxsga etkazilgan zarar qoplanadi.

Sug'urtaning to'rtinchi tarmog'iga tadbirkorlarga etkazilishi mumkin bo'lgan zarardan sug'urtalash kiradi. Bunda bevosita zararlar va bilvosita zararlardan keladigan yo'qotishlar ko'zda tutilib, korxonalar, savdo tashkilotida ishlab chiqarish vaqtidagi bekor turishlar, yangi texnika va texnologiyani joriy qilish bilan bog'langan xavf-xatarlar natijasida yuz bergan kamomadlar kiradi.

Ob'ekt bo'yicha guruhlashdan farqli o'laroq, xavf-xatar xillari bo'yicha sug'urtalash faqat mol-mulk sug'urtasi bo'yicha amalga oshiriladi. Guruhlash quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- * yong'in va boshqa tabiiy sifatlardan sug'urtalash
- * qishloq xo'jaligi ekinlarini qurg'oqchilikdan va boshqa tabiiy ofatlardan sug'urtalash
- * chorva mollari ko'lami va majburan so'yib yuborishdan sug'urtalash
- * Transport vositalarini falokatlardan, olib qochishdan va boshqa xavf-xatarlardan sug'urtalash

Ko'rsatilgan xavf-xatarlar bir-biri bilan bog'liq bo'lmasalar ham, lekin bir xil xavf natijasida boshqa falokatlar sodir bo'lish mumkin. Masalan, fermada yong'in sodir bo'lsa, u chorva mollariga ham o'tish mumkin. Xavf-xatarning yangi xillariga atom stansiyalari faoliyatini izdan chiqish bilan bog'langan xavf-xatarlar kirishi mumkin, bunday xavf-xatarlarga nisbatan sug'urtalash tadbiriq qilinadi.

Baxtsizlik hodisalari shaxsiy sug'urtaning ob'ektidir. Baxtsizlik hodisalariga, to'satdan qisqa muddatda inson organizimiga tabiiy kuchlarning zararli ta'siri natijasida vujudga keladigan hodisalar kiradi. Bunga quyidagilar kiradi:

- * bu hodisalar kutilmaganda, to'satdan sodir bo'ladi
- * qisqa muddatda bo'lib o'tadi
- * inson organizimiga zararli ta'sir ko'rsatadi
- * tabiiy kuchlar (energiya) ta'siri ostida sodir bo'ladi
- * haroratning ko'tarilishi va pasayib ketishi natijasida yuzaga keladi
- * kimyoviy ta'sir natijasida vujudga keladigan o'zgarishlar ham kiradi.

Umuman olganda, sug'urtani guruhlarga ajratish sug'urta kompaniyalarining faoliyat yo'nalishlarini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi hamda uning bir-biriga yaqin turlarini takomillashtirish uchun shart-sharoit yaratadi.

II.BOB. UMUMIY SUG'URTA TARMOG'IDA SUG'URTA TA'RIFLARINI ISHLAB CHIQISH USLUBI VA SUG'URTA ZAHIRLARINI SHAKLLANTIRILISHI

2.1 Umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta ta'riflarini ishlab chiqish uslubi

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar sifat jihatidan yangilanishi jarayonida sug'urta faoliyati ham rivojlanib, ravnaq topib bormoqda. Milliy sug'urta bozori so'nggi yillarda jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqdaki, buning isbotini sug'urta kompaniyalarining reyting ko'rsatkichlaridan ham kuzatish mumkin. Bugungi kunda mamlakatimizdasug'urta xizmatlari bozorini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish, jismoniy va yuridik shaxslarning sug'urta blzorida faol ishtirok etishini rag'batlantirish maqsadida sug'urta kompaniyalari uchun har tomonlama shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa, bozordagi sog'lom raqobat muhitining ham shakllanishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalari o'rtasida sog'lom raqobat mavjud, deb bema'lol ayta olamiz, buni ularning soni va ko'rsatayotgan sug'urtaviy xizmatlari sifatidan ko'rish mumkin.

Hozirda 31 ta kompaniya mijozlarga turli yo'nalishdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushining oshishini ta'minlab bermoqda. Ulardan 1 tasi davlat sug'urta kompaniyasi, 3 ta sho'ba korxonasi, 12 tasi aksiyadorlik jamiyati shaklidagi kompaniya, 15 tasi esa mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etilgan. Ushbu kompaniyalarning hayot sug'urta tarmog'i hamda umumiy sug'urta tarmog'ida

faoliyat yuritishiga qarab turlarga ajratadigan bo'lsak, hayot sug'urta tarmog'ida ikkita kompaniya faoliyat yuritisa, qolgan 29 ta kompaniya umumiy sug'urta tarmog'ida ishlaydi. Demak, milliy bozordagi 91% sug'urta kompaniya umumiy sug'urta tarmog'iga to'g'ri keladi.

Sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatini boshlashi uchun avvalom bor Moliya Vazirligidan tegishli litsenziyaga ega bo'lishlari kerak bo'ladi. Litsenziya olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar tarkibida sug'urta kompaniyasi o'z faoliyat nizomini taqdim etadi va ushbu nizomda faoliyat yuritadigan sug'urta tarmog'i hamda uning amalga oshiradigan klasslarini alohida ko'rsatib o'tishi talab etiladi. Sug'urta kompaniyalari qaysi klasslar bo'yicha litsenziyaga ega bo'lsa, faqat shu klasslar doirasidagina faoliyat yuritishi shart hisoblanadi, sug'urta klasslarini tanlash kompaniyaning Nizom jamg'armasiga bog'liq holda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-872-sonli Qaroriga asosan, sug'urta faoldiyatini yanada takomillashtirish, sug'urtalovchilarning kapitallashuvi va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning hududiy tarmoqlarini kengaytirish va sug'urta kompaniyalarining investitsion jarayonlardagi ishtirokini rag'batlantirish, shuningdek, sug'urta xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini samarali himoya qilishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining taklifiga binoan, 2010 yilning 1 yanvariga qadar sug'urtalovchilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdorlarini oshirish belgilandi. Unga ko'ra:

1. Umumiy sug'urta tarmoqlari uchun-750 ming evro
2. Hayot sug'urta tarmog'i uchun-1 mln evro
3. Majburiy sug'urta turlari uchun-1,5 mln evro
4. Qayta sug'urtalovchilar uchun-4 mln evro ekvivalentidagi summa shakllantirilishi kerak edi.

2010 yilning 26 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011 - 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va

barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda sug'urta kompaniyalari 2015 yilga qadar quyidagi miqdorlarda eng kam ustav kapitalini shakllantirishlari belgilab qo'yildi:

1. Umumiy sug'urta tarmoqlari uchun-1,5 ming evro
2. Hayot sug'urta tarmog'i uchun-2 mln evro
3. Majburiy sug'urta turlari uchun-3 mln evro
4. Qayta sug'urtalovchilar uchun-6 mln evro.

Demak, 1,5 mln evro ekvivalentidagi summani shakllantirgan sug'urta kompaniyalari umumiy sug'urta tarmog'idagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatishlari mumkin hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 31 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa ulardan 29 tasi umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Sug'ura tarmog'i ikkita tarmog'dan iborat bo'lib, ularni bir-birlaridan farqli xususiyatga ega. Masalan umumiy sug'urta tarmog'ining hayot sug'urta tarmog'idan asosiy farqi shundaki, umumiy sug'urta klasslari bo'yicha shartnoma faqat bir yilgacha bo'lgan muddatga tuziladi va sug'urta hodisasi ro'y berishidan qat'iy nazar bir yildan so'ng o'z kuchini yo'qotadi. Hayot sug'urta tarmog'ida esa sug'urta shartnomalari ikki va undan ortiq yilga tuziladi va u jamg'arilib borish xususiyati bilan ajralib turadi. Umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta hodisalari ro'y bermagan taqdirda sug'urta mukofotlari sug'urtalanuvchilarga qaytarilmaydi, ular kompaniyaning daromadi shakllanishiga xizmat qiladi. Hayot sug'urta tarmog'ida esa har bir to'langan sug'urta mukofoti jamg'arilib boradi va shartnomaning tugashi davrida sug'urtalanuvchilarga jamg'arilgan summa bilan birga foiz to'lovlari ham beriladi, ammo shartnomaning amal qilish davrida sodir bo'lgan sug'urta hodisalari natijasida to'langan sug'urta qoplamalari chegirib tashlanadi.

Mamlakatimizda sug'urta xizmatlari bozori hali unchalik shakllanib ulgurmagan, aholi sug'urtaning tub mohiyatini anglab etmagan davrlarda

majburiy sugʻurtaning salmogʻi ixtiyoriy sugʻurtaga nisbatan ancha salmoqli edi, buning asosiy sababi, birinchidan sugʻurta kompaniyalarining soni ancha kam edi va natijada kompaniyalar oʻrtasida raqobat mavjud emas edi, ikkinchidan, baʼzi insonlar sugʻurta nima ekanligi, uning afzallik jihatlari, ishonchliligini anglab etmagandilar. Sugʻurta toʻgʻrisida tasavvurga ega boʻlmay turib, unga ehtiyoj paydo boʻlishi aqlga sigʻmaydigan jarayon. Buning natijasida ixtiyoriy sugʻurtalanishni istaganlar soni juda kam edi va majburlab sugʻurta qilishlar amalga oshirildi. Sugʻurta sohasida qabul qilingan qonunlar, qarorlar hamda Prezident farmonlari sugʻurta kompaniyalarining sifatli xizmat koʻrsatishlari, aholi ishonchini qozonishlari, buning uchun arzon narxdagi, ammo sifatli sugʻurta mahsulotini ishlab chiqarishni, aholining sugʻurta toʻgʻrisidagi tasavvurini boyitish uchun kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirishni belgilab qoʻydi. Bu kabi iqtisodiy islohotlar oʻz natijasini berdi, yaʼni sugʻurta bozorining infratuzilmasi tashkil etildi va samarali faoliyat koʻrsatishiga erishildi, sugʻurta kompaniyalari oʻrtasida sogʻlom raqobat vujudga keldi, bu esa bugungi kunda sifatli sugʻurtaviy xizmat koʻrsatilishining asosiy sababchisi hisoblanadi.

Umumiy sugʻurta boʻyicha tariflarni hisoblashda sugʻurta turlarini ommaviy va yirik risklarga ajratish mumkin. Ommaviy sugʻurta turlari deganda, maʼlum toifadagi sugʻurtalanuvchilar va ularga tegishli sugʻurta risklarini qamrab oluvchi va ular boʻyicha sugʻurta obʻektlari sugʻurta qoplamalarining bir xilligini ifodalovchi sugʻurta turlari tushuniladi. Yirik yoki alohida risklar boʻyicha sugʻurta turlari sugʻurta hodisasining yuz berish chastotasi past boʻlganligi, lekin sugʻurta zarari hajmlari kattaligi bilan ajralib turadi. Mazkur sugʻurta turida bir nechta sugʻurta obʻektlarini sugʻurtalash mumkin, lekin sugʻurta summasining taqsimlanishi katta hajmda boʻladi.

Milliy sugʻurta tizimiga xalqaro amaliyotda keng qoʻllaniladigan atama va tushunchalar kirib keldi. Ulardan biri “aktuar”, “aktuariy”, “aktuar hisob-kitoblar” atamasidir. Qizigʻi shundaki, ayrimlar “aktuar” atamasini eshitganlarida rus tilidagi “aktual” soʻzini notoʻgʻri talqin etgan boʻlsalar kerak,

deb o‘ylashadi. Aslida aktuar tushunchasi 100 yillar mobaynida rivojlangan chet davlatlar sug‘urta faoliyatida ishlatilib kelinadi. Dastlab, ushbu atamaning lug‘aviy ma’nosi haqida qisqcha izoh bersak.

“Aktuar” atamasi “aktuariy” tushunchasi bilan uzviy bog‘langan va inglizcha «actuaru», lotincha «actuarmus» so‘zlaridan olingan bo‘lib, xisobchi, tez yozuvchi degan ma’nolarni anglatadi. Aktuariy sug‘urta kompaniyalarida ishlaydigan mutaxassis bo‘lib, u sugurta turlari buyicha tarif stavkalarini xisoblash usullarini ilmiy jixatdan asoslab beradi. Ma’lumki, sug‘urta tariflari sug‘urtalovchilarning moliyaviy jihatdan barqaror faoliyat ko‘rsatishlarida muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Xo‘sh shunday ekan, rivojlanishning hozirgi bosqichini boshidan kechirayotgan milliy sug‘urta kompaniyalarimiz sug‘urta tariflarini ishlab chiqishda aktuar hisob-kitoblarning usullaridan qanchalik foydalanishmoqda? Respublikamizda aktuar hisob-kitoblarni mukammal biladigan mutaxassislar etarlimi? Sug‘urta tariflarini ishlab chiqishda aktuar hisob-kitoblardan foydalanish hozirgi sug‘urta kompaniyalari uchun qanchalik samara beradi?

Avvalo, yuqorida sanab o‘tilgan savollarga javob berishdan oldin aktuar hisob-kitoblarning mazmun-mohiyati xususida biroz to‘xtalib o‘tsak.

Aktuar xisob-kitoblar uzida statistik va iktisodiy-matematik usullar asosida tarif stavkalarini xisoblash tizimini mujassamlashtiradi. Sugurtalovchi tomonidan sugurtalanuvchiga kursatiladigan xizmatlarning tannarxini xisoblash aktuar xisob-kitob kalkulyasiyasi deb ataladi. Aktuar xisob-kitob kalkulyasiyasi shartnomadagi sugurta tulovlarini aniklash imkonini beradi.

Aktuar xisob-kitoblar sugurtaning kuyidagi uziga xos xususiyatlarini xisobga olib, amalga oshiriladi:

- sugurta xodisalari sodir bo‘lishining extimollik xususiyatiga ega ekanligi va ularning baxolanishi. Bu sugurta mukofotlarining xajmiga uz ta’sirini utkazadi;

- sugurtalovchi tomonidan sugurtalanuvchiga kursatiladigan xizmatlarning to'liq tannarxi sugurta shartnomasida kursatiladigan sug'urta mukofotlari summasida o'z aksini topadi;

- sugurtalovchining sugurta zaxiralarini optimal xajmini aniqlash va shakllantirishning zarurligi;

- sugurta xodisasi ro'y berishi natijasida yuzaga keladigan kisman yoki umumiy zararlarning mavjudligi;

- sug'urta risklarining guruxlarga ajratilishi;

Sug'urta faoliyatida aktuar xisob-kitoblarning vazifalari quyidagilardan iborat:²

- jami sugurta xajmida risk guruxlari klasifikatsiyasini urganish;

- sug'urta hodisasi ro'y berishining matematik ehtimolligini hisoblash;

- sug'urtalash jarayonini tashkil etishda kerakli xarajatlarning matematik asoslanganligi;

- sug'urtalovchilarning zaxira fondini shakllantirishning matematik asoslanganligi;

- Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta mukofotlarini investitsiya maqsadlarida ishlatishda foiz normalarini aniqlash;

Aktuar hisob-kitoblarning nazariy asoslari XVII asrda D.Graund, YA. De Vitt va E.Galley kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda hozirgi paytda ancha takomillashtirilgan.

Sug'urta tarmoklariga kura aktuar xisoblar shaxsiy sugurta buyicha xisob-kitoblar, mol-mulk sugurtasi va javobgarlik sugurtasi buyicha aktuar xisob-kitoblarga guruxlanadi. Vakt kursatkichlari esa reja asosidagi xisob-kitoblarga guruxlanadi. Bu xisob-kitoblar kelajakda ushbu sugurta turini amalga oshirishda sugurtalovchiga tayanch buladi. SHuning uchun bu aktuar xisob-kitob turi kelgusidagi xisob-kitob deb xam ataladi.

Rejali aktuar xisob-kitoblar yangi sugurta turini joriy kilish vaktida risklar kuzatuv buyicha kursatkichlar mavjud bulmagan takdirda kullaniladi. Bunday

² И.Т.Балабанов, А.И.Балабанов «Страхования» Москва изд-во «Питер» 2004 г.

xolatda sugurta kompaniyasi tomonidan mazkur sugurta turiga uxshash sugurta turlari buyicha utkazilgan operatsiyalar natijalari asos kilib olinadi.

Boshqaruv xususiyatlariga kura aktuar xisob-kitoblar respublika miqyosida aktuar xisob-kitoblar, viloyatlar miqyosida aktuar xisob-kitoblar va ma'lum bir sugurta kompaniyasi miqyosidagi aktuar xisob-kitoblarga bulinadi. Respublika miqyosida aktuar xisob-kitoblar respublikadagi sugurta bozoriga tegishli, viloyatlar miqyosidagi esa viloyat xususiyatlariga kura ishlab chikiladi, shu bilan birgalikda xar bir sugurta kompaniyasi uz zaxira fondiga kura aktuar xisob-kitoblarni ishlab chikadi.

Aktuar hisob-kitoblarni yuritishda sug'urta statistikasi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Sug'urta statistikasi sugurta ishining umumlashgan yakuniy kursatkichlarini kayta ishlash usullarini sugurta operatsiyalarning takrorlanish tizimini urganishni uzida mujassamlashtiradi.

YUqorida keltirib o'tilgan sugurta tarmoklariga kura aktuar xisoblar shaxsiy sugurta buyicha xisob-kitoblar, mol-mulk sugurtasi va javobgarlik sugurtasi buyicha aktuar xisob-kitoblarga guruxlanadi. Vakt kursatkichlari esa reja asosidagi xisob-kitoblarga guruxlanadi. Bu xisob-kitoblar kelajakda ushbu sugurta turini amalga oshirishda sugurtalovchiga tayanch buladi. SHuning uchun bu aktuar xisob-kitob turi kelgusidagi hisob-kitob deb xam ataladi.

Respublikamiz milliy sug'urta bozorida, sug'urtalovchilar faoliyatida sug'urta tarif siyosatini yurg'izishning o'ziga xos tartibi ishlab chiqilgan. Bunday tartib qoidalarni ishlab chiqilishi sug'urtalovchilar faoliyatida sug'urta turlarini tabaqalarga ajratish va uni tartibga solish mexanizmini belgilashdan iboratdir. Umumiy sug'urta bo'yicha tariflarni hisoblashda sug'urta turlarini ommaviy va yirik risklarga ajratish mumkin. Ommaviy sug'urta turlari deganda, ma'lum toifadagi sug'urtalanuvchilar va ularga tegishli sug'urta risklarini qamrab oluvchi va ular bo'yicha sug'urta ob'ektlari sug'urta qoplamalarining bir xilligini ifodalovchi sug'urta turlari tushuniladi. Yirik yoki alohida risklar bo'yicha sug'urta turlari sug'urta hodisasining yuz berish chastotasi past bo'lganligi, lekin sug'urta zarari hajmlari kattaligi bilan ajralib turadi. Mazkur

sug'urta turida bir nechta sug'urta ob'ektlarini sug'urtalash mumkin, lekin sug'urta summasining taqsimlanishi katta hajmda bo'ladi. Ushbu sug'urta turlari bo'yicha sug'urta tariflarini hisoblashning o'ziga xos jihatlarini 1-jadvaldan ko'rish mumkin.

1-jadval

Netto-stavkalarini hisoblash bo'yicha sug'urta turlarining tasniflanishi³

Sug'urta turlari		
Hayot sug'urtasi	Umumiy sug'urta	
	Ommaviy sug'urta turlari	Yirik risklar bo'yicha sug'urta turlari
Ayrim tegishli bo'lgan sug'urta turlari		
<ul style="list-style-type: none"> ◆ Ma'lum yoshgacha yashash sug'urtasi ◆ Vafot etishdan sug'urtalash ◆ Rentalar to'lovini nazarda tutuvchi barcha sug'urta turlari (shu jumladan, pensiya sug'urtasi, nogironlik sug'urtasi va boshqalar) 	<ul style="list-style-type: none"> ◆ Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash ◆ Tibbiyot sug'urtasi ◆ Fuqarolik javobgarligi sug'urtasi ◆ Mol-mulk sug'urtasi va boshqalar. 	<ul style="list-style-type: none"> ◆ Sanoat korxonalarini sug'urtalash ◆ Aviatsiya va kosmik sug'urta ◆ Tabiiy ofatlardan sug'urtalash
Netto-stavkaning hisoblanishiga ta'sir etuvchi sug'urta turlarining xususiyatlari		
<ul style="list-style-type: none"> ◆ Ehtimollik elementi insonning hayot davomiyligi ehtimolligi bilan bog'liq. 	<ul style="list-style-type: none"> ◆ Bir turdagi ko'p sonli ob'ektlar va ular to'g'risidagi statistik ma'lumotlar 	<ul style="list-style-type: none"> ◆ Sug'urta hodisalari kamdan kam sodir bo'ladi, sug'urta ob'ektlari soni chegarlangan
Netto-stavkani hisoblashning xususiyatlari		
<ul style="list-style-type: none"> ◆ Ma'lumotlar sifatida demografik statistikadan foydalaniladi, vafot etish darajasi jadvali, sug'urta tariflarining diskontlanishi 	<ul style="list-style-type: none"> ◆ Tariflarning hisobi statistik usullar yordami o'rtacha ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. 	<ul style="list-style-type: none"> ◆ Netto-stavkani hisoblashda bir nechta o'n yillik ma'lumotdan foydalanish taqozo etiladi, kam sonli ob'ektlar uchun maxsus tariflarni hisoblash usullarining xalqaro darajada kelishuvi

³ Муаллифнинг илмий изланиш натижаларидан келиб чикиб тузилган.

Har bir sug'urtalanayotgan ob'ekt o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlaridan kelib chiqib mazkur ob'ektni ma'lum ob'ektlar guruhiga kiritish mumkin. Ob'ektlarning ushbu guruhi o'ziga xos ehtimollik va zararining og'irlilik ko'rsatkichlariga ega. SHuning uchun mazkur guruh uchun uning xususiyatlarini hisobga oluvchi netto-stavkani hisoblab chiqish mumkin. Hisoblangan netto-stavka barcha ob'ektlar uchun o'rtacha bo'lib, guruhga kiruvchi ob'ektlarning ko'rsatkichlaridagi chetlanishlarni hisobga oladi. Har bir ob'ektning ma'lum o'ziga xos xususiyatlari sug'urta hodisasining yuz berishiga, zararining kutilayotgan hajmiga yoki ikkala ko'rsatkichga birdaniga ta'sir etuvchi xususiyatlari bo'lishi mumkin. YUqoridagi keltirilgan ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar *risk omillari* deb nomlanadi. Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-son qaroriga "Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalash to'g'risida"gi nizomida sug'urta faoliyatini klassifikatorlari, sug'urta tarmog'ini ikkita tarmog'iga ajratilgan holda belgilab qo'yilgan bo'lib, buni quyidagi 5-jadvalda ko'rishimiz lozim⁴.

Umumiy tartibda barcha tarifkatsiya tizimlarida sug'urtalanayotgan ob'ektlar bir nechta guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh uchun bazaviy tarif stavkasi ishlab chiqiladi. Bundan tashqari sug'urtalovchi aks ettirishni lozim topgan barcha risk omillarining ro'yxati keltiriladi. Har bir omilning sug'urta ob'ektida mavjudligi tarifni hisoblashda maxsus koeffitsientlar orqali hisobga olinishi belgilanadi. Koeffitsientlarning bir qancha turlari bo'lib, ular ko'paytiruvchi, qo'shiluvchi yoki boshqa shakllarga ega bo'lishi mumkin. Kerakli bo'lgan koeffitsientni tanlash tarifkatsiya tizimini yaratishda sug'urta turining xarakteridan kelib chiqib sug'urtalovchi tomonidan tanlanadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urtalovchilarning faoliyatida sug'urta zararliligi darajasi juda past bo'lib, bozor rivojlanish bosqichida bo'lganligi sababli, sug'urta tariflari yuqori darajada belgilangan. Albatta bu holat sug'urta tashkilotlari uchun foydali bo'lib, ular bu holatdan

⁴ Manba: Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-son qaroriga asosan.

foydalanmoqdalar. Lekin sug'urta bozorining rivojlanishi bilan unda raqobatning keskinlashuvi vujudga keladi. Mazkur holatda sug'urta kompaniyasi faoliyatining samaradorligini ta'minlashda tarifikatsiya tizimi asosiy omil sanaladi.

YUqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston sug'urta tashkilotlari o'z faoliyatini amalga oshirishda samarali tarifikatsiya tizimini shakllantirishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash joizki, qayta sug'urtalash munosabatlarida ham tarif siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, qayta sug'urtalash munosabatlari qayta sug'urtalash shartnomasiga asosan amalga oshiriladi. Qayta sug'urtalovchi ushbu shartnomaga muvofiq qayta sug'urtalanuvchidan sug'urta risklarini sug'urta mukofoti evaziga qabul qiladi. Odatda, qayta sug'urtalash shartnomasiga asosan sug'urtalanayotgan riskni baholash va sug'urta hodisasi yuz bergandan so'ng zararining hajmini aniqlash borasida qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchi kompaniyaga ishonch bildiradi. Bundan ko'rinadiki, qayta sug'urtalovchi riskni baholash va sug'urta zararini aniqlashda ko'p hollarda ishtirok etmaydi va qayta sug'urtalovchining qayta sug'urtaga berilgan shartnoma bo'yicha holat to'g'ridan-to'g'ri qayta sug'urtalanuvchining faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Ba'zi hollarda, qayta sug'urtalash shartnomasida zararlarning hajmi katta bo'lganda, sug'urta hodisasini o'rganishda qayta sug'urtalovchining vakillarini jalb etish belgilangan bo'lishi mumkin.

Qayta sug'urtalovchi ma'lum javobgarlikni o'z zimmasiga olishda sug'urta mukofotining hajmi qayta sug'urtalanuvchi bilan kelishilgan holda o'rnatiladi. Mazkur holatda qayta sug'urtalanuvchi tomonidan ushbu sug'urta riskining darajasi baholangan bo'ladi. Qayta sug'urtalanuvchi o'z sharoitidan kelib chiqib, riskning ma'lum qismini qayta sug'urtalovchiga uzatadi. Bu holatda qayta sug'urtalovchi qayta sug'urtalanuvchining riskni baholash bo'yicha hisob-kitobiga ishonishi yoki riskni ma'lum darajada o'rganib chiqishi mumkin.

Umumiy sug'urta turlari bo'yicha tarif stavkalarini aniqlash va ularning qo'llanilishi shartlarini belgilash sug'urta mahsulotini tarifikatsiya qilish deb

nomlanadi. Tarifikatsiyaning asosiy bosqichlari sifatida *tarifikatsiya tizimini shakllantirish va tarif stavkalarini hisoblashni keltirish* mumkin. Ma'lumki sug'urta tarifining tarkibiy qismi bo'lgan netto-stavka sug'urtalovchi uchun sug'urtalangan ob'ektning sug'urta hodisasiga uchrash ehtimolligini hisobga oluvchi sug'urta qoplamasi to'lanishining matematik kutilishini ifodalaydi. Mazkur kattalikka quyidagi omillar o'z ta'sirini o'tkazadi:

- shartnoma bo'yicha sug'urta hodisasining yuz berish ehtimolligi;
- sug'urta hodisasining kutilayotgan og'irligi (bunda sug'urta qoplamasining kutilayotgan hajmining sug'urta summasiga nisbati nazarda tutiladi).

SHuningdek sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriluvchi loyiha yakunlari bo'yicha "TOP 25" loyihasida 22 ta sug'urta tashkilotlari ishtirok etdi.

Ishtirokchilar doirasi "Global Insurance Group" sug'urta tashkiloti hisobiga kengaydi. Shu asnoda, 2013 yil davomida "TOP 25" loyihasida "Agro Invest Sug'urta", "Alskom", "Asia Insurance", "Asko Vostok", "DD General Insurance", "Euroasia Insurance", "Global Insurance Group", "Gross Insurance", "Hamkor Sug'urta", "Ishonch", "Kafil Sug'urta", "Kafolat", "Kapital Sug'urta", "Madad", "O'zbekinvest Hayot", "Silk Road Insurance", "Sug'urta uz", "Temir yo'l Sug'urta", "Transinsurance Plus", "UzagroSug'urta", "Uzbekinvest" va "Xalq Sug'urta" kabi sug'urta tashkilotlari ishtirok etdi.

Ushbu sug'urta tashkilotlari bozor bo'yicha sug'urta mukofotlarining 80 foizini shakllantiradi. Quyida keltirilgan barcha ko'rsatkichlar loyihada ishtirok etuvchi sug'urta tashkilotlari ma'lumotlari asosida shakllantirilgan.

"TOP 25" loyihasida ishtirok etuvchi sug'urta tashkilotlari bo'yicha sug'urta mukofotlarining 2013 yildagi hajmi 283,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Respublikadagi sug'urta tashkilotlari faoliyatining o'tgan yil yakunlari sug'urta bozori umumiy ko'rsatkichlarining miqdor va sifat bo'yicha o'sishini ko'rsatdi.

"TOP 25" loyihasining hisobot davridagi yakuniy ma'lumotlariga ko'ra, sug'urta mukofotlarining hajmi miqdoriy ma'noda 2012 yil ko'rsatkichidan 22,3

foizga oshdi. 2013 yilda “TOP 25” loyihasi ishtirokchilarining sug'urta mukofotlarini to'plash bo'yicha o'sish tezligi sezilarli ravishda pasaydi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda majburiy sug'urtalash turlari bozordagi sezilarli ulushni tashkil eta boshladi va bozor ko'rsatkichlari dinamikasiga o'zining ta'sirini ko'rsatmoqda. “TOP 25” ma'lumotlariga ko'ra, 2013 yil davomida majburiy sug'urtalash turlari bo'yicha pul tushilmalari hajmi 2012 yil ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada ko'paygan. Bunga asosan, ko'rib chiqilayotgan davr mobaynida majburiy sug'urtalash turlari bo'yicha mukofotlar hajmi 32,0 foizga o'sdi va 91,6 mlrd so'mni tashkil etdi.

Majburiy sug'urtalashning umumiy sug'urta mukofotlaridagi ulushi 2,4 foiz punktiga oshdi va 32,3 foizni tashkil etdi. 2012 yilda ushbu ko'rsatkich 29,9 foizni tashkil etgan. Muvofiq ravishda ixtiyoriy sug'urtalash turlarining umumiy sug'urta mukofotlaridagi ulushi 67,7 foizni tashkil etdi. To'la ma'noda ixtiyoriy sug'urtalash turlari bo'yicha sug'urta mukofotlari hajmi 18,1 foizga oshdi va 192,1 mlrd. so'mga yetdi. Amaldagi sug'urta majburiyatlari hajmi dinamikasida ham o'sish kuzatilmoqda. Jumladan, 2013 yilda amaldagi sug'urta majburiyatlari hajmi 2012 yil darajasiga nisbatan 72,4 trln. so'mga ko'paydi. Natijada ushbu ko'rsatkich 69,9 foizga oshdi va 175,9 trln. so'mni tashkil etdi. Ixtiyoriy sug'urtalash turlari bo'yicha ushbu ko'rsatkich 79,4 foizga o'sdi va 143,8 trln. so'mni tashkil etdi.

Shuningdek, majburiy sug'urtalash turlari bo'yicha majburiyatlar hajmi yuqori tezlikda o'sdi. Shunday qilib, ushbu sug'urtalash turi bo'yicha amaldagi majburiyatlar hajmi o'sishining tezligi 37,2 foizni tashkil etdi va majburiyatlar hajmi 32,1 trln. so'mga yetdi.

Ixtiyoriy va majburiy sug'urtalash bo'yicha amaldagi sug'urta majburiyatlarining o'zaro nisbati bir muncha o'zgardi. Ixtiyoriy sug'urtalash bo'yicha amaldagi sug'urta majburiyatlarining yanada yuqori o'sish tezligi hisobiga, ushbu turning ulushi 4,4 foiz punktga ko'paydi. Natijada 2013 yil yakunlari bo'yicha ixtiyoriy va majburiy sug'urtalashning o'zaro nisbati tegishli ravishda 81,7 va 18,3 foizni tashkil etdi.

2.2 Umumiy sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta zahiralarini shakllantirilishi

O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 21-moddasiga muvofiq “Qabul qilingan sug‘urta majburiyatlari bajarilishini ta‘minlash uchun sug‘urtalovchilar ham so‘mda, ham chet el valyutasida to‘langan sug‘urta mukofotlaridan maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda sug‘urta zaxiralarini shakllantiradilar hamda joylashtiradilar”.

SHuningdek O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan ro‘yxatidan olingan “Sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari to‘g‘risida” Nizomga muvofiq sug‘urtalovchi o‘zining balansida majburiyat yoki aktivlar sifatida hisobga olinuvchi quyidagi texnik zaxiralarni shakllantirishi shart:

a) ishlab topilmagan mukofot zaxirasi (umumiy sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda);

b) mukofotlar zaxirasi (hayotni sug‘urta qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda);

v) keyingi yillarda transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo‘ljallangan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (FJMS BZ) (transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda);

v-1) keyingi yillarda ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirish xarajatlarini qoplash uchun mo‘ljallangan ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha barqarorlashtirish zaxirasi (IFJMS BZ) (ish

beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda);

g) sug'urta hodisasining yuz berishi bilan kelib chiquvchi hamda sug'urta shartnomasi shartlari bo'yicha qoplanishi lozim bo'lgan zarar (ziyon) hajmiga muvofiq holda aniqlanadigan va quyidagilardan tarkib topgan zararlar zaxirasi:

xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi (XZZ);

- sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi (SXZZ).

Sug'urtalovchi qo'shimcha ravishda:

▪ ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasini (OCHZ);

▪ falokatlar zaxirasini (FZ);

▪ zararlilikning tebranishi zaxirasini (ZTZ);

▪ aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasini (ANZ);

▪ sug'urta faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa turdagi sug'urta zaxiralarini tashkil etishi mumkin.

Sug'urta kompaniyasida sug'urta tariflarini hisoblashda qanday usullar qo'llanilayotganligidan qat'i nazar, u bir sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasining yuz berish ehtimolligini, sug'urta shartnomasi bo'yicha o'rtacha sug'urta summasini va bir sug'urta hodisasiga to'g'ri keladigan o'rtacha sug'urta qoplamasi miqdorlarini aniqlash imkonini berishi kerak.

Lekin, ta'kidlash joizki, sug'urta qoplamalarini to'lash ehtimoli nazariyasiga muvofiq ushbu summalar haqiqatda mo'ljallanganiga etmasligi yoki undan ortiq ham bo'lishi mumkin. Sug'urtalovchi uchun zararli bo'lib kelgan yillarda zararlarni qoplash maqsadida zararlilikning tebranishi zaxirasi, sug'urtalovchi uchun foydali kelgan o'tgan yillar hisobiga shakllantiriladi.

Halokatlar va zararlilikning tebranish zaxiralarini shakllantirish va sarflash tartibi sug'urtalovchi tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi bilan kelishiladi.

Ushbu sug'urta zaxiralarini shakllantirishda asos bo'lib bazaviy sug'urta mukofoti hisoblanadi. Bazaviy sug'urta mukofoti kelib tushgan sug'urta

mukofotidan sugʻurta shartnomasini tuzganlik uchun komission mukofotlar va oldini olish chora-tadbirlari zaxirasiga qilinadigan ajratmalar chegirilgan holda aniqlanadi. Mazkur zaxiralarning hajmi bazaviy sugʻurta mukofotidan nazarada tutilgan va Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasi bilan kelishilgan stavkalardagi ajratmalar asosida hisoblanadi.

Keltirilgan zaxiralardan faqatgina xabar qilingan lekin, bartaraf etilmagan zararlar zaxirasini hisoblashda baza sifatida bazaviy sugʻurta mukofoti emas balki, sugʻurtalanuvchining arizasidagi sugʻurta summasi hisoblanadi. Ushbu sugʻurta zaxirasi, hisobot sanasiga maʼlum bir sugʻurta turlari boʻyicha xabar qilingan zararlar bartaraf etilmagan taqdirda, hisoblanadi va shakllantiriladi.

Zaxiralarning hisob-kitobi hisobot sanasiga sugʻurtalovchi tomonidan moliyaviy natijalarni aniqlashda har bir sugʻurta turi boʻyicha hisob-kitob qilinadi. Qonunchilikka muvofiq sugʻurta zaxiralari mukofotlar qaysi valyutada kelib tushsa, oʻsha valyutada shakllantiriladi.

Ishlab topilmagan sugʻurta mukofotlari zaxirasi hisobot davrida amalda boʻlgan va unga taaluqli boʻlgan hamda muddati hisobot davridan tashqariga chiquvchi sugʻurta shartnomalari boʻyicha kelib tushgan bazaviy sugʻurta mukofotlarini namoyon etadi. Ishlab topilmagan sugʻurta mukofotlari zaxirasi, hayot sugʻurtasidan boshqa sugʻurta turlari, yuqorida keltirilgan Nizomga asosan ajratilgan uchta hisob guruhlaridan kelib chiqib hisoblanadi.

Birinchi hisob guruhi:

- baxtsiz hodisalar va kasalliklardan sugʻurta qilish;
- ixtiyoriy meditsina sugʻurtasi;
- yuklarni sugʻurtalash;
- boshqa turdagi mol-mulklarni sugʻurtalash;
- avtotransport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini sugʻurtalash;
- javobgarlik sugʻurtasining boshqa turlari, qarz oluvchining kreditni qoplay olmaslik javobgarligidan tashqari.

Ikkinchi hisob guruhi:

- moliyaviy risklarni sugʻurtalash;

- qarz oluvchining kreditni qoplay olmaslik javobgarligini sug'urtalash.

Uchinchi hisob guruhi:

- sug'urta shartnomasi amal qilish muddatining boshlanishi va tugashi sanalari noaniq bo'lgan ("ochiq") sug'urta shartnomalarini tuzishni nazarda tutuvchi barcha sug'urta turlari.

IMZni hisoblash uchun sug'urta faoliyati to'rtta hisob guruhlariga bo'linadi:

a) 1-hisob guruhi:

- baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish (1-klass);
- kasallikdan ehtiyot shart sug'urta qilish (2-klass);
- er usti transport vositalarini sug'urta qilish (3-klass);
- harakatlanadigan temiryo'l tarkibini sug'urta qilish (4-klass);
- aviatsiya sug'urtasi (5-klass);
- dengiz sug'urtasi (6-klass);
- yo'ldagi mol-mulkni sug'urta qilish (7-klass);
- mol-mulkni olovdan, tabiiy ofatdan (8-klass) va zarardan sug'urta qilish (9-klass);
- avtofuqarolik javobgarligini sug'urta qilish (10-klass);
- aviatsiya (11-klass) va dengiz (12-klass) sug'urtasi doirasida javobgarlikni sug'urta qilish;
- umumiy fuqarolik javobgarligini sug'urta qilish (13-klass) (qarz oluvchilarning kreditni to'lamaganligi uchun javobgarligini sug'urta qilishdan tashqari);
- huquqiy himoya bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta qilish (17-klass);
- noproporsional qayta sug'urta qilish shartnomalari (har bir qayta sug'urtaga qabul qilingan shartnoma (shartnomalar) bo'yicha qayta sug'urta qilish shartnomasining amal qilish doirasiga tushuvchi zararining sodir bo'lishi borasida sug'urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan har bir sug'urta to'lovidagi oldindan o'rnatilgan ulushni qoplash bo'yicha qayta

sug'urtalovchining majburiyati paydo bo'luvchi shartlarga ega bo'lgan qayta sug'urta qilish shartnomalaridan tashqari qayta sug'urta qilish shartnomalari);

b) 2-hisob guruhi:

- kreditlarni sug'urta qilish (14-klass);
- kafillikni (kafolatlarni) sug'urta qilish (15-klass);
- boshqa moliyaviy tavakkalchiliklardan sug'urta qilish (16-klass) (qishloq xo'jaligi ekinlarining hosilini sug'urta qilishdan tashqari);

- qarz oluvchilarning kreditni to'lamaganligi uchun javobgarligini sug'urta qilish (13-klass);

v) 3-hisob guruhi:

- sug'urta shartnomasining amal qilish muddati boshlanishining va tugashining noaniq ("ochiq") sanalariga ega bo'lgan sug'urta shartnomalarini tuzish imkoniyatini nazarda tutuvchi sug'urta turlari;

g) 4-hisob guruhi:

- qishloq xo'jaligi ekinlarining hosilini sug'urta qilish (16-klass).

Sug'urta zaxiralarini hisoblash uchun sug'urtalovchi mazkur bandeda nazarda tutilgan har bir hisob guruhi ichida sug'urta shartnomasining shartlari, sug'urta ob'ektlari, sug'urta ob'ektlarining joylashuvi va sug'urta tavakkalchiliklari ro'yxatiga bog'liq holda qo'shimcha hisob guruhlarini kiritishi mumkin.

Birinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha alohida "pro rata temporis" usuli - ishlab topilmagan mukofotni hisobot sanasiga sug'urta shartnomasining tugamagan amal qilish muddatiga proporsional holda hisoblash orqali hisoblanadi. Har bir sug'urta shartnomasi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot hisob-kitob uchun qabul qilingan bazaviy sug'urta mukofotining hisobot sanasiga sug'urta shartnomasining tugamagan amal qilish muddatining (kunlarda) sug'urta

shartnomasining butun amal qilish muddati (kunlarda) nisbatiga ko'paytmasi sifatida quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\mathbf{Imi = Bmi \times \frac{Ti - Mi}{Ti}}, \text{ bu erda:}$$

Imi - i-shartnoma bo'yicha ishlab topilmagan mukofot;

Bmi - i-shartnoma bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti;

Ti - i-shartnomaning kunlardagi amal qilish muddati;

Mi - i-shartnomaning kuchga kirishidan boshlab hisobot sanasigacha bo'lgan kunlar soni.

Butun hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot zaxirasi har bir shartnoma bo'yicha "pro rata temporis" usuli orqali hisoblangan ishlab topilmagan mukofotlarni qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Birinchi hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot zaxirasi "1/24" usuli bo'yicha ham hisoblanishi mumkin.

Ishlab topilmagan mukofotni (ishlab topilmagan mukofot zaxirasini) "1/24" usuli orqali hisoblash uchun bitta hisob guruhiga taalluqli bo'lgan shartnomalar kichik guruhlariga ajratiladi. Kichik guruhlariga amal qilish muddati (oylarda) bir xil bo'lgan va amal qilishining boshlanish sanasi bir xil oylarga to'g'ri keluvchi shartnomalar kiritiladi.

Kichik guruhga kiruvchi shartnomalar bo'yicha bazaviy sug'urta mukofotining umumiy summasi kichik guruhga kiruvchi har bir shartnoma bo'yicha hisoblangan bazaviy sug'urta mukofotlarini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Ishlab topilmagan mukofot (ishlab topilmagan mukofot zaxirasi) "1/24" usuli bo'yicha hisoblanganda, quyidagi shartlar qo'llaniladi:

sug'urta shartnomasi amal qilishining boshlanish sanasi deb oyning o'rtasi qabul qilinadi;

sug'urta shartnomasining oylarning butun sonlariga teng bo'lmagan amal qilish muddati oylarning eng yaqin katta butun soniga teng deb qabul qilinadi.

Ishlab topilmagan mukofot (ishlab topilmagan mukofot zaxirasi) har bir kichik guruh bo'yicha bazaviy sug'urta mukofotlari umumiy summasini ishlab topilmagan mukofot zaxirasi miqdorini hisoblash koeffitsientlariga ko'paytirish orqali aniqlanadi.

Har bir kichik guruh uchun koeffitsient kichik guruhlariga kiruvchi shartnomalarning hisobot sanasiga tugamagan amal qilish muddatining (yarim oylarda) kichik guruhga kiruvchi shartnomalar amal qilishining umumiy muddatiga (yarim oylarda) nisbati sifatida aniqlanadi.

Butun hisob guruhi bo'yicha ishlab topilmagan mukofot zaxirasi "1/24" usuli orqali har bir kichik guruh bo'yicha hisoblangan ishlab topilmagan mukofotlarni (ishlab topilmagan mukofot zaxiralarni) qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

Ishlab topilmagan mukofotlarni hisoblashning ushbu usulini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz.

Masalan, sug'urta tashkiloti faoliyatini boshlagan birinchi oyda muddati 6 oy bo'lgan uchta (ushbu sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari – 240 ming so'm) va muddati 1 yil bo'lgan ikkita (ushbu sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari – 720 ming so'm) sug'urta shartnomasini tuzgan.

2-jadval

1-hisob guruhi bo'yicha "1/24" usulida hisoblangan ishlab topilmagan sug'urta zaxiralari⁵

Sug'urta turi _____

Sug'urtalash valyutasi _____

1. 3 ustunda 1-jadvalning 6 ustunidagi bazaviy sug'urta mukofoti aks ettiriladi.
2. 6 ustunda 2-jadvalning 6 ustunidagi bazaviy sug'urta mukofoti aks ettiriladi.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2008 йил 15 декабрда 1882-сон билан рўйхатидан олинган "Суғурталовчиларнинг суғурта захиралари тўғрисида" Низом

3. 9 ustunda 3-jadvalning 6 ustunidagi bazaviy sug'urta mukofoti aks ettiriladi.

4. 12 ustunda 4-jadvalning 6 ustunidagi bazaviy sug'urta mukofoti aks ettiriladi.

5. 4, 7, 10, 13 ustunlarda ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasini hisoblashda foydalaniladigan koeffitsientlar berilgan

6. Ishlab topilmagan mukofotlar bazaviy mukofotlarni jadvalda keltirilgan koeffitsientlarga ko'paytirish orqali hisoblanadi. Natija 5, 8, 11, 14 ustunlarda aks ettiriladi.

7. Ishlab topilmagan mukofotlarning summalarining jami 13 satrda aks ettiriladi. Ishlab topilmagan mukofotlarning jami summasi 14 satrda 13 satrdagi summalarning yig'indisi sifatida aks ettiriladi. Olingan ma'lumotlar RNPni hisoblash uchun mo'ljallangan jadvalda umumlashtiriladi. Jadvalning 3, 6, 9, 12 ustunlari bo'yicha mos ravishda 1, 3, 6, 12 oyga tuzilgan sug'urta shartnomalari **1 ustunda keltirilgan 1 oy bo'yicha**

SHartnoma imzolangan -dan so'ng o'tgan oylar soni	Satr Kodi	Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati											
		1 oy			3 oy			6 oy			1 yil		
		Baz-y Sug'-ta Muk-ti	Koefitsent	I.Topmagan Muk-t	Baz-y Sug'-ta Muk-ti	Koefitsent	I.Topmagan Muk-t	Baz-y Sug'-ta Muk-ti	Koefitsent	I.Topmagan Muk-t	Baz-y Sug'-ta Muk-ti	Koefitsent	I.Topmagan Muk-t
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
11 oy	01	X	X	X	X	X	X	X	X	X		1/24	
10 oy	02	X	X	X	X	X	X	X	X	X		3/24	
9 oy	03	X	X	X	X	X	X	X	X	X		5/24	
8 oy	04	X	X	X	X	X	X	X	X	X		7/24	
7 oy	05	X	X	X	X	X	X	X	X	X		9/24	
6 oy	06	X	X	X	X	X	X	X	X	X		11/24	
5 oy	07	X	X	X	X	X	X		1/12			13/24	
4 oy	08	X	X	X	X	X	X		3/12			15/24	
3 oy	09	X	X	X	X	X	X		5/12			17/24	
2 oy	10	X	X	X		1/6			7/12			19/24	
1 oy	11	X	X	X		3/6			9/12			21/24	
xisobot sanasi bilan tugaydigan oy	12		1/2			5/6			11/12			23/24	
Jami	13	X	X		X	X		X	X		X	X	
Jami RNP	14												

2-jadvalda, 1-hisob guruhi bo'yicha "1/24" usulida RNPni hisoblash uchun mo'ljallangan (RNPni hisoblashda foydalaniladigan jadvallar ilovada keltirilgan). Tarif stavkasida 10% oldini olish chora-tadbirlari va 10% vositachilik mukofotlari nazarada tutilgan. Bundan kelib chiqadiki, sug'urta shartnomalari bo'yicha bazaviy sug'urta mukofoti kelib tushgan sug'urta mukofotining 80%ini tashkil etadi.

3-jadval

SHartnoma imzolangan -dan so'ng o'tgan oylar soni	Satr kodi	Sug'urta shartnomasining amal qilish muddati					
		6 oy			1 yil		
		Baz-y Sug'-ta Muk-ti	Koefitsent	I.Topmagan Muk-t	Baz-y Sug'-ta Muk-ti	Koefitsent	I.Topmagan Muk-t
1	2	9	10	11	12	13	14
11 oy	01	X	X	X		1/24	
10 oy	02	X	X	X		3/24	
9 oy	03	X	X	X		5/24	

8 oy	04	X	X	X		7/24	
7 oy	05	X	X	X		9/24	
6 oy	06	X	X	X		11/24	
5 oy	07		1/12			13/24	
4 oy	08		3/12			15/24	
3 oy	09		5/12			17/24	
2 oy	10		7/12			19/24	
1 oy	11		9/12			21/24	
hisobot sanasi bilan tugaydigan oy	12	192	11/12	176	384	23/24	368
Jami	13	X	X	368	X	X	368
Jami RNP	14	544					

Sugʻurta shartnomasining tuzilish muddati muvofiq boʻlmagan taqdirda eng yaqin katta muddatni (oyni) olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Har bir sugʻurta shartnomalari guruhi boʻyicha ishlab topilmagan mukofotlar tegishli koeffitsientlarga koʻpaytirish orqali hisoblanadi. Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi barcha shartnoma guruhlari boʻyicha hisoblangan ishlab topilmagan mukofotlarning summasi sifatida olinadi .

Hozirgi kunda Oʻzbekistonda sugʻurta zaxiralarini shakllantirishda «1/24» usuli qoʻllanilishi mumkin. Lekin sugʻurtalovchilar amaliyotda ushbu usulni qoʻllash holatlari kuzatilmagan. Baxtsiz hodisalardan sugʻurta qilish, avtotransport sugʻurtasi singari ommaviy sugʻurta turlarini amalga oshiruvchi sugʻurta tashkilotlari uchun sugʻurta zaxiralarini shakllantirishda qulayliklar yaratish maqsadida ushbu usulni qoʻllash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

YUqoridagilar hayot sugʻurtasidan boshqa sugʻurta turlari uchun moʻljallangan boʻlib, mamlakatimizda hayot sugʻurtasi sohasida sugʻurta zaxiralaridan mukofotlar va aktivlarning nomuvofiqligi zahirasini shakllantirish belgilangan, lekin mukofotlar zahirasini shakllantirish tartibi umumiy tartibda keltirilgan.

Ayni paytda mamlakatimizda sugʻurta xizmatlari bozori jadal rivojlanib bormoqda. Oʻttizdan ziyod kompaniya, jumladan, davlat va chet el kapitali

asosida tashkil etilgan sug'urta kompaniyalari aholi ehtiyojini inobatga olgan holda, sug'urta xizmatlari ro'yxatini yildan-yilga kengaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, «O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi 2013-yilda sug'urta mukofotlari tushumi bo'yicha yetakchi o'rin, sug'urta to'lovlari bo'yicha esa ikkinchi o'rinni egalladi.

«O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi boshqaruvi raisining o'rinbosari vazifasini bajaruvchi Ixtiyor Nurmuhammedovning ta'kidlashicha, kompaniya tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlarining 50 foizdan ortig'i (30,9 milliard so'm) majburiy sug'urta turlari ulushiga to'g'ri keladi.

Qayd etish kerakki, majburiy sug'urta turlari davlat tomonidan tegishli me'yoriy-huquqiy hujjat asosida aniqlanmoqda. Mazkur hujjatga muvofiq sug'urta qoidalari, hajmi va tariflari, sug'urta obyektlari, sug'urta qiluvchi, sug'urta qilinuvchi va foyda oluvchilar belgilanadi. Xususan, 2008-yildan buyon mamlakatimizda transport vositalari egasining fuqarolik javobgarligi majburiy sug'urta qilinmoqda.

Matbuot anjumanida «O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi 2013-yilda ushbu sug'urta turi bo'yicha 734 mingdan ziyod sug'urta shartnomasi tuzib, qiymati 22,2 milliard so'mdan ortiq mukofotni ta'minladi. Natijada qabul qilingan sug'urta majburiyatlari hajmi 4,7 trillion so'mdan oshgan. O'tgan yili kompaniyaga avtotransport vositalari egalaridan kelib tushgan 1,3 mingdan ziyod sug'urta e'tirozi bo'yicha 2,1 milliard so'm to'langan.

«O'zagrosug'urta» kompaniyasi 2009-yildan buyon ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilmoqda va bu mehnatkashlarning huquq hamda manfaatlarini himoya qilishda muhim omil bo'layotir. O'tgan 2013-yilda kompaniya 34,6 mingdan ortiq shartnoma tuzib, 6,8 milliard so'mdan ziyod sug'urta mukofotlarini ta'minladi. Qabul qilingan sug'urta majburiyatlari hajmi 5,1 trillion so'mdan oshdi.

Tadbirda ta'kidlandiki, mamlakatimizda Sog'lom bola yili, deb e'lon qilingan joriy yilda «O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi 18 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar hamda homilador ayollarni sug'urta qiladi.

Ma'lum bo'lishicha, 2013-yilning o'tgan davrida «O'zagrosug'urta» kompaniyasi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar bilan 3,66 millionta shartnoma imzolangan. Natijada olingan javobgarlik doirasida baxtsiz hodisalar va tabiat injiqliklari oqibatida ko'rilgan zararlar uchun mijozlarga 2012-yilning shu davriga nisbatan 3,6 foiz ko'p sug'urta to'lovlari to'langan.

Mamlakatimizda sug'urta bozorini rivojlantirish jarayonida majburiy sug'urtalashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. «O'zagrosug'urta» kompaniyasida transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha 657 mingtadan ziyod, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash bo'yicha 28 mingta shartnoma imzolangan. Noqulay ob-havo sharoiti oqibatida paxta hosildorligi past bo'lgan 49 fermer xo'jaligiga 612,4 million so'm, g'alladan kam hosil olgan 77 fermer xo'jaligiga 194,5 million so'm to'langan. SHunga ko'ra, kompaniya tomonidan transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish, g'alla va paxta hosilini sug'urtalash bo'yicha hisobotlar yuritish, sug'urta portfelini shakllantirish va tezkor boshqarishni yo'lga qo'yish maqsadida elektron dastur ishlab chiqildi. SHuningdek Respublikamizda bugungi kunda umumiy sug'urta tarmog'ining barcha klasslar doirasida keng miqiyosda olib boruvchi kompaniya bu «O'zagrosug'urta» DASK hisoblanadi. Ushbu sug'urta kompaniyasi Respublikamiz bo'yicha sug'urta xizmatlari ko'rsatish qamrovi yildan-yilga sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa, sug'urta kompaniyalarining sug'urta bozorida sug'urta mahsulotlarini taklif qilishi va mijozlarga sifatli sug'urta xizmatlari ko'rsatishi yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi. "O'zagrosug'urta" davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi keyingi yillarda majburiy sug'urta turlari bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmat turlarining hajmi ortib bormoqda. Kompaniya tomonidan 2013 yil davomida yig'ilgan sug'urta mukofotlarining 50.1 foizi, ya'ni 30.9 mlrd. so'mi majburiy sug'urta turlari

bo'yicha yig'ilgan. Bunda kompaniya tomonidan ish beruvchi va transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligani majburiy sug'urta qilish, qurilish-montaj ishlari vaqtidagi xatarlarni majburiy sug'urta qilish, xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga hamda atrof muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish kabi majburiy sug'urtalar bo'yicha shartnomalar tuzilgan (1-diagrammaga qarang⁶).



2008 yil 21 aprelda qabul qilingan "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijrosini ta'minlash borasida kompaniya tomonidan 2013 yil davomida kiruvchi qayta sug'urtalash bilan birga jami 734 467 sug'urta shartnomalari tuzilib, 22 mlrd. 238 mln so'mdan ortiq sug'urta mukofoti tushumi ta'minlandi.

Shartnomalar bo'yicha olingan javobgarlik hajmi qariyb 4 trillion 736 mlrd. so'mdan oshdi. 2012 yilning tegishli hisobot davriga nisbatan shartnomalar soni 79 173 taga yoki 112.1 foizga, sug'urta mukofotlari tushumi 3 mlrd 955 mln so'm yoki 122.9 foiz, sug'urta shartnomalari bo'yicha olingan sug'urta javobgarliklari 1 048 mlrd so'm yoki 128.4 foiz o'sishga erishildi.

⁶ "Ўзагросуғурта" ДАСК маълумотлари асосида тайёрланди.

Shu bilan birga kompaniya tomonidan 2013 yil davomida majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha siylov olish huquqiga ega bo'lgan jami 24 745 ta fuqarolarga sug'urta mukofotlarini to'lashda qonunchilikda belgilangan 50 foizlik siylov berildi. Siylov tariqasida berilgan sug'urta mukofotlari hajmi 323.3 mln. so'mni tashkil etdi (2-diagrammaga qarang⁷).



Sug'urtaning ushbu turi bo'yicha 2013 yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan jami 1385 ta da'vo arizalari ko'rib chiqilib, 2 mlrd 105 mln. so'mdan ortiq sug'urta to'voni to'lab berildi. Shulardan 1 mlrd 920 mln so'mdan oshig'i yoki sug'urta tovonining 91.2 foizi jismoniy shaxslarga to'g'ri keldi.

Kompaniya tomonidan 2013 yil davomida ish beruvchining fuqarolik javobgarligani majburiy sug'urta qilish sug'urta turi bo'yicha 22 458 ta shartnoma tuzilgan bo'lib, 6 mlrd 883 mln so'mdan sug'urta mukofotlari tushumi ta'minlandi va shartnomalar bo'yicha olingan javobgarlik hajmi qariyb 5 trillion 125 mlrd so'mdan oshdi. Sug'urtaning ushbu turidan 64 ta da'vo arizalari ko'rib

⁷ “Ўзагросуғурта” ДАСК маълумотлари асосида тайёрланди.


chiqildi va jabrlanuvchilarga va vafot etgan xodimlarning mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolariga 1 mlrd 113 mln so'mdan oshiq sug'urta to'voni to'landi.

Shuningdek, xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya yuz bergan holda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga hamda atrof-muxitga zarar yetkazganlik uchun javobgarlik qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda majburiy sug'urta qilinishi belgilangan.

Ushbu sug'urta turi bo'yicha kompaniya tomonidan 2013 yil davomida 778 ta shartnoma imzolanib 1 mlrd 86 mln so'mdan ortiq sug'urta mukofoti tushumi ta'minlandi va shartnomalar bo'yicha olingan javobgarlik hajmi qariyb 1 trillion 141 mlrd so'mdan oshdi.

3-diagramma

O'z mablag'lari, sug'urta rezervlari va boshqa majburiyatlar dinamikasi⁸, mlrd. so'm (TOP 25)



Balans bo'yicha majburiyatlar miqdori 2013 yil 9 oylik yakunlari bo'yicha 28,2% ga ko'tarilib, 18,4 mlrd.so'mni tashkil etdi. Majburiyatlar tarkibining asosiy qismini joriy majburiyatlar tashkil etadi va umumiy majburiyatlarning 95,7% ni tashkil etadi. Qayd qilish zarurki joriy aktivlar 29,2% ga o'sib, 17,6 mlrd.so'mni tashkil etdi. Oqibatda passiv tarkibida sug'urta rezervlarni ulushi ko'tarilib, shaxsiy rezervlar va majburiyatla ulushi kamaydi. SHunday qilib, o'z mablag'lari tarkibi quyidagi ko'rinishni oldi: o'z mablag'lari – 63,7%, sof

⁸ www.mif.uz

sug'urta rezervlari – 32,7% va majburiyatlar – 3,6%. Aktivlarning 96,4% ni o'z mablag'lar va sug'urta rezerlarining tashkil etishi, sug'urta tashkilotlarining ijobiy moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

Xulosa qilganda 2013 yil 9 oylik yakunlari bo'yicha asosiy faoliyatdan daromad 20,5 mlrd.so'mga oshdi. Ta'kidlash joizki, ijobiy natajaga erishgan sug'urta tashkilotlarining asosiy faoliyatdan daromadi 13,6 mlrd.so'mni tashkil etmoqda. Taxlil qilinayotgan davr bo'yicha "Agro Invest Sugurta" ST, "Asia Insurance" ST, "Asko Vostok" ST, "DD General Insurance" ST, "Sugurta uz" ST "O'zagrosugurta» DASK sug'urta tashkilotlari ijobiy natijalarga erishildi.


Moliyaviy faoliyatdan 2013 yil 9 oylik yakunlari bo'yicha sug'urta tashkilotlari daromadlari 31,8 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilnikiga nisbatan 40,2% ga ko'p. Albatta yana «O'zbekinvest» EIMSK eng katta ulushga ega va – 54,7%ni tashkil etmoqda. "O'zagrosugurta" DASK va "Kafolat"ning ulushi 14,2% va 9,7%. qolgan tashkilotlarning ulushi 6,3%dan ham kam va umumiy 21,5%.

Moliyaviy xarajatlar daromadlargi nisbatan pastroq temp bilan o'sgan va bu ko'rsatkich 2013 yil 9 oylik yakunlari bo'yicha 19,1% oshib, 11,9 mlrd.so'mni tashkil etdi. Oqibatda moliyaviy faoliyatdan sof foyda 56,9% ga ko'tarilib, 19,9 mlrd.so'mga etdi.

4-diagramma

Sug'urtalovchilarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari⁹ (TOP 25)

⁹ www.mif.uz



O‘z kapitalining o‘rtacha rentabilligi 2013 yil 9 oylik yakunlari bo‘yicha 5,8%. Sug‘urta tashkilotlari kesimida ushbu ko‘rsatkich -11,7% dan 41,8% oralig‘ida tashkil etmoqda. Umuma olganda rentabellikning eng optimal ko‘rsatkichi deb 1% dan yuqori bo‘lgan xar qanday ko‘rsatkich tan olingan, shartli ravishda esa -1% dan 1%gacha bo‘lgan diapozon xisoblanadi. SHunday qilib, 17 ta sug‘urta tashkilotlarining rentabillik darajasi optimal ko‘rsatkichda, uchtasining ko‘rsatkichi shartli va ikkitasiniki esa shartli ravishdagi diapazondan past.

Joriy likvidlilik xolati taxlil qilinganda uning koeffitsienti 12,2 ni tashkil etganligi aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkich yuqori xisoblanadi. Kompaniyalar kesimida ushbu ko‘rsatkich 3,3 dan 67,8 diapazon oralig‘ida.

III.BOB. Umumiy sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta zahiralari shakllanish mexanizmini takomillashtirish

3.1. Umumiy sug‘urta tarmog‘ida sug‘urta zahiralari shakllanish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari

Ma'lumki, boshqa tovarlar va xizmatlar kabi, sug'urta xizmatining ham bahosi, ya'ni sug'urta tarifi talab va taklif asosida paydo bo'ladi hamda bu baho o'zining pastki va yuqori chegaralariga ega. Sug'urta tushumlarining miqdori sug'urta to'lovlari va sug'urta tashkilotlari xarajatlari miqdoriga teng bo'lishi sug'urta bahosining pastki chegarasini bildiradi. Bunday sharoitda sug'urta kompaniyasi asosiy faoliyatdan foyda olmaydi. Ko'p hollarda sug'urta bozoridagi keskin raqobat, sug'urta tashkilotlarining potensial mijozlarni jalb etish maqsadida tarif stavkalarini kamaytirishga majbur etadi. CHet mamlakatlarda, sug'urtalovchilar sug'urta faoliyatidan zarar ko'rganda, bu zarar investitsiyadan keladigan daromad hisobidan qoplanadi.


Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tarifini davlat tomonidan tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Buning sababi shundaki, ayrim sug'urta kompaniyalari tarifni past darajada belgilashi natijasida tang moliyaviy holatga tushib qolishlari mumkin. Bu o'z navbatida, ko'p ming sonli mijozlarning manfaatlariga zid keladi. Aksincha, sug'urta tariflarini asossiz ravishda oshirish sug'urtalovchi hisob raqamiga katta daromad keltirish mumkin. Ammo, bu holat mijozlarning is'temolchi sifatidagi huquqlarini poymol etilishiga olib keladi. Ana shulardan kelib chiqqan holda, sug'urta tashkilotlarining tarif siyosati ustidan davlat nazorati zarur deb hisoblaymiz va bu haqda to'htalishdan oldin davlat sug'urta nazorati, ya'ni maxsus vakolatli davlat organining faoliyat bilan tanishib chiqamiz.

Birinchi navbatda shuni alohida ta'kidlab o'tish joyizki, sug'urta tashkilotlarining faoliyati boshqa turdagi xo'jalik sub'ektlar faoliyatidan keskin farq qiladi. CHunki, ular ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashda va sug'urta hodisalari ro'y berganda etkazilgan zararni qoplash uchun xizmat qiladilar. Bu holat, sug'urtachilar zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi va shuning uchun, ular davlat tomonidan nazorat ostiga olinmog'i zarurdir.

Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazoratga olishni shartli ravishda uchta guruhga bo'lish mumkin.

Sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish turli shakllarda, xususan, maxsus qonunlar qabul qilish, soliq solish, alohida hukumat qarorlari bilan majburiy sug'urtalashni joriy qilish va vakolatli sug'urta nazorati xizmatini tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

1-chizma¹⁰



Sug'urta bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga litsenziyalar (ruxsatnomalar) berish sug'urta nazorati xizmatining eng asosiy vazifalaridan biridir. Litsenziya (ruxsatnoma) berish jarayonida sug'urta nazorati sug'urtachining bo'lajak faoliyatini dastlabki tekshiruvdan o'tkazadi. YA'ni, nizom jamg'armasi va o'z mablag'larining holati hamda bu mablag'larning tashkilot zimmasidagi majburiyatlariga o'zaro munosabati ko'rib chiqiladi. Sug'urta faoliyatiga litsenziya (ruxsatnoma) berishning zaruriyati sug'urtaning o'z mohiyatidan kelib chiqishini unutmazlik kerak. Chunki, sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtda sug'urtalanuvchiga shartnomada ko'rsatilgan mablag'ni o'z vaqtida to'lashi lozim. Sug'urta faoliyatini nazorat qiluvchi organning bu boradagi ishlari nafaqat sug'urtalanuvchilar manfaatiga mos tushadi, balki butun davlatning manfaatlari yo'lida ham xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, sug'urta tashkilotlari sug'urtalanuvchi oldidagi majburiyatini bajara olmay qolganda, davlat sug'urta nazorati xizmati, mijozlarning manfaatini

¹⁰ Муаллифнинг илмий изланишлари натижасидан келиб чиқиб тузилган.

koʻzda tutadigan choralar koʻrishi kerak. Bozorda koʻplab sugʻurta tashkilotlari faoliyat koʻrsatadi, tabiiyki, bu holat potensial mijozlarni jalb qilish uchun ular oʻrtasidagi raqobatni ham kuchayishiga olib keladi. Natijada, raqobatga bardosh bera olmagan baʼzi sugʻurta kompaniyalari “sugʻurta maydonidan” chiqib ketadi.

Sugʻurta tashkilotlari oʻz zimmasiga olgan majburiyatlari hajmiga qarab, maʼlum foiz ajratish yoʻli bilan markazlashgan sugʻurta jamgʻarmasini tashkil etsalar, maqsadga muvofiqdir. Ushbu jamgʻarma mablagʻlari qiyin holatga tushib qolgan sugʻurta tashkilotlariga beriladigan yoki ular bankrot deb eʼlon qilinganda majburiyatlarini bajarishi uchun xizmat qiladi. Bizningcha, bu jamgʻarma tashkil etilajak davlat sugʻurta nazorati xizmati tomonidan, sugʻurtalovchilar uyushmasi vakillarini jalb qilgan holda boshqarilishi lozim.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sugʻurta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish toʻgʻrisida” 1998 yil 8 iyuldagi qaroriga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga davlat sugʻurta nazorati funksiyasi yuklatildi va shu munosabat bilan uning markaziy apparatida Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasi tashkil etildi.


- Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasiga sugʻurta faoliyati masalalari boʻyicha oʻz vakolatlari doirasida davlat boshqaruv organlari, yuridik shaxslar va ularning birlashmalari uchun bajarilishi majburiy boʻlgan normativ hujjatlar qabul qilish huquqi berilgan.

- Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasi Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida tashkil etilgan boʻlib, u yuridik shaxs maqomiga ega emas. Oʻz faoliyatini Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan reja asosida tashkil etadi.

Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasiga Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirining taqdimnomasiga koʻra Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadigan boshliq rahbarlik qiladi. Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasi boshligʻi ayni paytda Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirining oʻrinbosari hisoblanadi.

Hozirgi paytda Sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasi tashkiliy tuzilmasi quyidagi koʻrinishga ega.

2-chizma¹¹



Maxsus vakolatli davlat organi va uning xodimlari sugʻurta bozori professional ishtirokchilarining ustav fondida va boshqaruv organlarida ishtirok etishga, shuningdek sugʻurta vositachisi sifatida ish yuritishga haqli emaslar.

“Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida” Qonunining qabul qilinishi va sugʻurta nazorati davlat inspeksiyasining vakolatlari kengayganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sugʻurta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu hukumat qaroriga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining "Sugʻurta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" 1998 yil 8 iyuldagi 286-son qaroriga tegishli oʻzgartirishlar kiritildi¹². Ilgari mavjud boʻlgan “Sugʻurta tashkilotlarini nazorat qilish boʻlimi” "sugʻurta faoliyatini litsenziyalash va nazorat qilish boʻlimi" boʻlimi degan yangi nom oldi.

SHunday qilib, biz sugʻurta tashkilotlarining tarif siyosatini tartibga solish usullari bilan tanishib chiqdik va quyidagi xulosalarga keldik. Sugʻurta tashkilotlarining tarif siyosatini tartibga solishning bir necha usullari boʻlib, ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

¹¹ Muallifning ilmiy izlanishlari natijasidan kелиб чиқиб тузилган.

¹² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 27 ноябрдаги 413-сонли “Суғурта хизматлари бозорини янада ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори.

- tariflarni bozor mexanizmlari, ya'ni talab va taklif asosida tartibga solinishi;

- sug'urta tariflarini maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tartibga solinishi. Bunda Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi sug'urtalovchilarning tarif siyosatini ikki shaklda nazorat qilish imkoniyatiga ega. Birinchisi, sug'urtalovchiga sug'urtaning u yoki bu klassi bo'yicha litsenziya berilayotganda sug'urta tariflarining qanchalik asosli ekanligi ekspertiza qilinadi. Ikkinchisi, reja asosida bevosita sug'urta tashkilotlarida tekshirish ishlari chog'ida tarif stavkalarining to'g'ri qo'llanilayotganligi nazorat qilinadi.

Xulosa

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi va xalqimiz hayoti farovonligini yanada yaxshilanishi yo'lida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarning samaradorligi respublikamiz avtomobil sanoatini rivojlanishi, transport vositalarini keskin ko'payishi bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy talablar darajasidagi dinamik va tezlik xususiyatlari yuqori bo'lgan transport vositalarining soni va yo'llarda harakat jadalligi yil sayin o'sib bormoqda. Bu esa o'z navbatida harakat xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transport hodisalarining oldini olish, fuqarolarimizning hayoti va sog'ligini, mol-mulklarini himoya qilish yuzasidan samarali tadbirlarni amalga oshirish, sodir etilayotgan hodisalarning oqibatlariga ularni yuzaga kelishi shart-sharoitlariga e'tiborni kuchaytirish lozimligini taqozo qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, er yuzida yo'l-

transport hodisalari oqibatlarida yiliga 1,5 millionga yaqin kishi halok bo'lmoqda, jarohatlanganlar soni esa bundan 20-30 marta ko'pdir.

Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha jiddiy choralar ko'rilishiga qaramay, afsuski, avtotransport vositalari bilan yo'l-transport hodisalarini keskin kamaytirishning imkoniyati bo'lmayapti. Ma'lumki, yo'l-transport hodisasi, tabiiy ofatlar, ug'irlik, avtotransport vositalarini olib qochish natijasida transport vositasi egasi jiddiy moddiy va ma'naviy zarar ko'radi. Halqaro amaliyotda bunday zararlarning o'rnini qoplashda sug'urta mexanizmidan samarali foydalaniladi.

Biz, bitiruv malakaviy ish yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasidan kelib chiqib, umumiy sug'urta tarmog'ida sug'urta zahiralari shakllanish mexanizmi va muammolari bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik.

1. Sug'urtalash, sug'urta faoliyati va sug'urta nazoratining qonunchilik va normativ huquqiy bazasini yanada takomillashtirish;

2. Ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari hajmini, ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish kerak.

3. Mamlakat sug'urta bozorining ochiq-oydinligini va ishonchliligini ta'minlash, sug'urtalovchilarning kapitallashuv darajasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va to'lovga qobiliyatini mustahkamlash;

4. Sug'urta sohasida faoliyat olib boradigan xodimlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish;

5. Aholi va yuridik shaxslarni, ayniqsa biznesni sug'urtalash sohasida, shuningdek qishloq joylarda sug'urtalovchilarning alohida bo'linmalari va sug'urta agentlari sonini ko'paytirish hisobiga sug'urta xizmatlari bilan qamrab olish darajasini oshirish;

6. Eksport kreditlarini va eksport-import operatsiyalarini samarali sug'urta himoyasini ta'minlovchi eksportni sug'urtalash bo'yicha yangi kompleks sug'urta xizmatlari va mahsulotlari majmuini ishlab chiqish va tatbiq etish;

7. Xorijiy sarmoya ishtirokidagi sugʻurta kompaniyalarini tashkil qilishni ragʻbatlantirish boʻyicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

8. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subʻektlarini sugʻurtalashni jadal rivojlantirish, biznesni sugʻurtalash sohasida yangi sugʻurta xizmatlarini joriy etish, ularning aniq manzilliligi, tabaqalashtirilganligi, sifati va samaradorligini oshirish.

9. Sugʻurta tarifi, sugʻurtalovchilar moliyaviy barqarorligi toʻgʻridan oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Chunki sugʻurta tarifi, sugʻurtalovchining sugʻurta operatsiyalari bilan bogʻliq munosabatlarni oʻz ichiga oladi. Shuning uchun sugʻurtalovchilar har bir sugʻurta operatsiyasi boʻyicha sugʻurta tarifini belgilash va aniqlashda, sugʻurtalanayotgan obʻektlarni kuchdan kechirish holatlarini yaʼni monitoring oʻtkazishlarni sifatini oshirishlari kerak.

10. Har bir sugʻurtalovchi, sugʻurtalanuvchi oldida oʻzining har xil koʻrinishdagi reklamalari va kalendarlarini berishlari bilan mijozlarni oʻzlariga yaqin oladilar. Lekin ushbu reklamalari va kalendarida sugʻurtalash turi va ularning hududlar boʻyicha manzilli joylashishlari koʻrsatilgan. Shuning uchun har bir sugʻurtalovchi kompaniya, sugʻurtalanuvchi boʻlgan mijoziga asosan sugʻurtaga oid normativ huquqiy hujjatlariga oid oʻquv-uslubiy tavsiyalarni sugʻurta hodisalardan misollar keltirilgan variantlarini ishlab chiqib, sugʻurtalanuvchilar eʼtiboriga havola etishlari maqsadga muvofiq boʻladi.

11. Sugʻurtalanayotgan obʻektga, sugʻurta tarifi siyosati sugʻurta obʻekti faoliyati oʻrganilib, unga eʼtimol koʻzda tutilgan holatlardan kelib chiqib sugʻurta puli ajratiladi. Baʼzi hollarda ajratilgan sugʻurta puli, sugʻurtalangan obʻektga etkazilgan zarar miqdoriga etmaydi. Ushbu qaltis holatlarni kelib chiqishi, Oʻzbekistonda aktuariy markazlarini faoliyati yaxshi yoʻlga qoʻyilmaganligi hamda ularga xos dasturiy taʼminotlarni ishlab chiqilmaganligidan dalolat beradi.

12. Oʻzbekiston sugʻurta bozorining professional qatnashchilari Assotsiatsiyasi va sugʻurta bozorining professional qatnashchilari bilan birgalikda aholi oʻrtasida sugʻurta madaniyatini oshirish boʻyicha maʼrifiy va

tushuntirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha respublika ommaviy axborot vositalarida chiqishlar qilish, hamda seminar va treninglar o'tkazib borish kerak yilida kamida bir marta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi-T.:O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2003.-496 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida" Qonuni.–// «Xalq so'zi» gazetasi, 2008 yil 22 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Sug'urta faoliyati to'g'risida». - T.: 2002 y., 5 aprel.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 28 may.
4. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida» Qonuni.T.:2007y., 15 sentbyar.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2007 yil 15 sentyabr.
5. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida» Qonuni. T.: 2009 y., 23 dekabr.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2009 yil 23 dekabr.
6. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" Qonuni. "Xalq so'zi", 2008 yil 23

dekabr.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-618-son Qarori.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2007 yil 11 aprel.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 maydagi «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-872-sonli qarori. «Xalq so'zi», 2008 yil 22 may.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011 — 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida» 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438-son Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2011 yil 31 maydagi PQ-1544-son Qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 31 yanvardagi «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3022-son Farmoni.// «Xalq so'zi» gazetasi, 2002 yil 1 fevral.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 286-sonli Qarori. 1998 yil 8 iyul.//O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari, 4-ilova, - T.: 2000.
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.// O'zbekiston Respublikasi Hukumatining Qarorlari to'plami, 2002, 11.
14. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining «Sug'urtalovchining sug'urta zaxiralari to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida» 2008 yil 20 noyabrdagi 107-son buyrug'i. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida

2008 yil 15 dekabrda 1882-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. – T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 52-son.

15. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 12 mayda 1806-son bilan ro'yxatga olingan va Moliya vazirining 2008 yil 22 apreldagi 41-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida Nizom».

16. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009 yil 3 iyuldagi “Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchining investitsiya faoliyati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 68-son buyrug'iga asosan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 16 iyulda 1982-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

17. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazining qarori. “Sug'urtalovchilar tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatning amalga oshirilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008 yil 2 dekabrda 1876-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013 yilning asosiy yakunlari va 2014 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi./Xalq so'zi, 2014 yil 18 yanvar.

19. Karimov I.A.Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. “Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir”. – T.: O'zbekiston, 2011. T.19. – 98 bet.

20. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari/I.A.Karimov.-T.: O'zbekiston,2009.-56 b.

21. Arxipov A.P., V.B. Gomellya, D.S. Tulenty. Straxovanie. Sovremennyy kurs: uchebnyk-2-e izd, pererab. –M.: Finansy i statistika, INFRA-M, 2008 g. - 448 s.
22. Abramov V.YU. Straxovanie. Uchebnoe posobie. – M.: Volters Kluver, 2007. – s. 402.
23. Adamchuk N. Ocherki teorii straxovaniya: retrospektivniy analiz razvitiya. – M.: Ankil, 2009. – s.282.
24. Alekseev A. Straxovanie: uchebnoe posobie. – M.: Feniks, 2008. – s.316.
25. A.Arhipov. Anderraying v straxovanii. Teoreticheskiy kurs i praktikum: uchebnoe posobie. – M.: YUNITI-DANA, 2009. –s.400.
26. Bakirov A. Formirovanie i razvitie rynka straxovyx uslug. – M.: Finansy i statistika, 2007. – s.380.
27. Baymuratov T.M. Sugurta faoliyatida risklar transferi. Monografiya. – T.: IQTISOD MOLIIYa, 2005. – 196 b.
28. Baxramova G. Straxovanie – neot'emlemaya chast vedeniya biznesa// jurnal "Ekonomicheskiy vestnik Uzbekistana", 4/2009, str.58-59.
18. Veselovskiy M. Straxovoy servis: Uchebnoe posobie. – M.: "INFRA – M", 2009 g.
29. Gavrilova S. Straxovanie: Uchebnoe posobie. – M.: "Eksmo", 2010 g. – 304 str.
30. Gvozdenko A. Straxovanie: ucheb.posobie. – M.: Prospekt, 2008. – s.238.
31. Gomellya V.Straxovanie: ucheb.posobie. – M.: Market DS, 2006. – s.200.
32. Godin A.M., Frumina S.V. Straxovanie: Uchebnyk. - M.: «Dashkov I.K.», 2009 – 480 st.
33. Denisova I.Straxovanie.Uchebnyk.– M.:IKS "MarT", 2009 g.- 240 str.
34. Iminov T.K., Xasanov F.R. Osvoenie regionov – vajneyshiy faktor razvitiya straxovogo rynka// jurnal "Ekonomicheskiy vestnik Uzbekistana", 4/2009, str.67-68.
35. Ikromov O.G., Gaybullaev B. Remni finansovoy bezopasnosti (obzor straxovogo rynka–2008)//Ekonomicheskoe obozrenie, №5-6, 2009 g. S.86-91.

36. Ikromov O.G. Straxovanie: vchera, segodnya, zavtra// Narodnoe slovo, 3 iyulya 2009 g. S.1-2.
37. Ikromov O.G'., Shennaev X.M. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozori: rivojlanish tendentsiyalari va istiqbollari.// "Moliya" jurnali, 2008 yil 1-son.
38. Ikromov O.G. Moliya bozorining qudratli vositasi.// "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi" jurnali, 4/2009, 37-41 betlar.
39. Korotkova YU.E. Kratkiy kurs po straxovaniyu.Uchebnoe posobie. – M.: Okey-kniga, 2010. – s.240.
40. Kuznetsova I. Straxovanie jizni imushchestva grajdan. Prakticheskoe posobie. – M.: Dashkov i K, 2010. –s.400.
41. Nikulina N. Straxovoy marketing. Uchebnoe posobie. – M.: "YUNITI – DANA ", 2009 g. – 503 str.
42. Nikulina N.N. Straxovanie. Teoriya i praktika: ucheb.posobie dlya studentov vuzov, obuchayushixsya po spetsialnostyam: «Finansы i kredit», «Buxgalterskiy uchet, analiz i audit»: 2-e izd, pererab. - M.: YUNITI-DANA, 2008 g. - 511 s.
43. Nikulina N.N. Straxovoy marketing: ucheb.posobie dlya studentov vuzov, obuchayushixsya po spetsialnosti «Finansы i kredit» - M.: YUNITI-DANA, 2009,-503 s.
44. Nurmuhamedov I. "O'zagrosug'urta": salmoqli odimlar.// "O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi" jurnali, 4/2009, 46-47 betlar.
45. Obzor straxovogo rыnka Uzbekistana//Biznes-vestnik Vostoka, №3-4 13 yanvarya 2011 g. – str.9.
46. Основы straxovoy deyatel'nosti: Ucheb'nik./ Otv. red. Prof. T.A. Fedorova. - SPb.:Magistr , 2008.-768 s.
47. Ochilov I. Sug'urta hisobi va hisoboti. O'quv qullanma. – T.: IQTISOD MOLIYA, 2010. – 310 b.
48. Perspektivy razvitiya vzaimnogo straxovaniya v Uzbekistane. Analiticheskaya zapiska. – T.: Proekt PROON "Reforma gosudarstvennykh finansov v Uzbekistane ", 2010 g.
49. Рыбин V. Osnovi straxovaniya. Uchebnoe posobie.–M.:KNORUS.– s. 256.

50. Samarova E. Straxovaya matematika: Prakticheskiy kurs.Uchebnoe posobie. – M.: Infra-M, 2009. – s.361.
51. Sovremennnoe sostoyanie, problemy i perspektivy razvitiya straxovaniya ot katastroficheskix prirodnyx riskov v Uzbekistane. Analiticheskaya zapiska. – T.: Proekt: “Reforma gosudarstvennyx finansov v Uzbekistane”, 2010. s.210.
52. Straxovanie.Uchebnik.Pod red.T.A.Fedorovoy.–M.:Magistr2009–s.285.
53. Straxovanie: ekonomika, organizatsiya, upravlenie.Uchebnik. – M.: Ekonomika, 2010. – s.256.
54. Serbinovskiy B. Straxovoe delo. Uchebnoe posobie. – Rostov n/D: “Feniks ”, 2010 g. – 476 str.
55. Straxovanie: ekonomika, organizatsiya, upravlenie. Uchebnik. – M.: “Ekonomika”, 2010 g. - 751 str.
56. Straxovanie: uchebnik dlya studentov, obuchayushixsya po spetsialnostyam “Finansy i kredit”, “Buxgalterskiy uchet, analiz i audit” / pod. red.V.V.SHaxova,YU.T.Axvlediani.–M.:“YUNITI–DANA”, 2010 g.- 511 str.
57. Sug’urta agentlari uchun qo’llanma.– T.:“PRINTXPRESS”,2010y.– 208 bet.
58. “Uzagrosugurta”: straxovaya zashita po vsemu Uzbekistanu//Biznes-vestnik Vostoka, №30, 14 aprelya 2011 g.-str.5.
59. Umarov S. O’zbekistonda sug’urta faoliyati rivojlanishini boshqarish. Monografiya. – T.: Fan, 2011. – 238 b.
60. Filin S. Straxovanie i xedjirovanie riskov investitsionnoy deyatelnosti. – M.: Ankil, 2009. –s.216.
61. SHaxova V.V., Axvlediani YU.T. Straxovanie: uchebnik dlya studentov, obuchayushixsya po spetsialnostyam "Finansy i kredit", "Buxgalterskiy uchet, analiz i audit". – M.: YUNITI-DANA, 2009. – s.248.
62. SHaxov V. Straxovanie: Uchebnik. – M.: YUNITI-DANA, 2008. – s.295.
63. YUldashev R. Ocherki teorii straxovaniya: retrospektivniy analiz razvitiya. – M.: ANKIL, 2009. s.244.
64. Statisticheskoe obozrenie Uzbekistana// Goskomstat, 2012 g.

65. Xo'jaev Y. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urta.O'quv qo'llanma.-T.:Soliq akademiyasi, 2005.
66. Shennaev X.M.,Sug'urta agentlari uchun qo'llanma.O'quv qo'llanma.-T.:info COM.UZMChJ nashriyoti, 2010y.
67. Shennaev X.M., Kenjaev I.G'. Chet mamlakatlar sug'urtasi. O'quv qo'llanma. T.,2012.
68. Shennaev X.M., Xalikulova G.T., Tashqi iqtisodi faoliyatda sug'urta. O'quv qo'llanma. T.,2012.
69. Shennaev X.M., Xalikulova G.T., Sug'urta marketingi. O'quv qo'llanma. T.,2012.
- 70 .Shennaev X.M., O'zbekiston sug'urta bozori. O'quv qo'llanma. T.,2013y.

Internet saytlari

71. www.mf.uz.
72. www.sug'urta.uz.
73. www.UzReport.com.
74. www.uzbekinvest.uz.
75. www.agros.uz.
76. www.kafolat.uz.
77. www.kapitalsug'urta.uz.
78. www.alskom.uz.
79. www.allinsurance.ru.
80. www.expert.ru.
- 81 . www.znay.ru.